

O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta'lim vazirligi
Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti

“ARAB FILOLOGIYASIGA KIRISH”
fanidan ma'ruzalar matni

Bilim sohasi 220000-Gumanitar fanlar
Bakalavr yo`nalishi 5220100-Filologiya (arab)

Umumiy soat hajmi-42
Kurs-2
Semestr-3
Ma'ruza-20
Amaliy mashg`ulotlar-42

Tuzuvchi: k.o`qt. Mamataxunova D.K.
Taqrizchi: f.f.n. dots. Rustamiy S.R.

Toshkent - 2009

So`z boshi

«Arab filologiyasiga kirish» ma'ruzalar matni jahon andozalari talablariga javob bera oladigan bakalavr darajasidagi arab filologlarini tayyorlashda 2-kurs talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, filologlarni arab tilining dastlabki asoslari bilan tanishtirish, ularning bilimini kengaytirish hamda chuqurlashtirish uchun xizmat qiladi.

Mazkur ma'ruzalar matnida O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining muvofiqlashtiruvchi ilmiy uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va nashr etilgan «Arab filologiyasiga kirish» dasturining barcha masalalarini yoritishga harakat qilindi.

Filologiyaga kirish fani 38 soatga mo'ljallangan bo'lib, 20 soat ma'ruza, 18 soat amaliyotdan iborat bo'lib, har bir ma'ruzaga reja, so'ng savollar, tayanch iboralar va mustaqil ish topshiriqlar va adabiyotlar ro'yxati berilgan.

Ma'ruzalarda arab filologiyasining asosiy vazifalari, arab madaniyati va uning xalifalikda tutgan o'rni arab tili xom-som tillar oilasining eng yosh tili sifati tarkibiga kirishi, qadimiy arab davlatlari, arab yozuvining kelib chiqishi, arab adabiy tili va adabiyotining paydo bo'lishida Qur'oni Karimning tutgan o'rni, zamonaviy arab adabiy tili va uning vazifalari, arablashtirish muammolari, Evropa va O'zbekistondagi arabshunoslik kabi masalalar o'rganiladi.

Muallif

Ma`ruza 1. Filologiya. Arab filologiyasi

Reja:

- 1. Filologiya va uning asosiy vazifalari**
- 2. Arab filologiyasi.**
- 3. Arab xalifaligida madaniyat va arab tilining tutgan o`rni.**

Filologiya grekcha so`z bo`lib, «tilga muhabbat» degan ma'noni anglatadi. (grekcha filo - sevuvchi, do'st; logos - til, so`z, fikr.) Filologiya qadimgi madaniyat fanidir. Akademik N.I.Konrad o`zining «G`arb va Sharq» degan kitobida shunday degan: «Filologiya bir paytning o`zida, ya'ni antik davrda ham g`arbda va ham sharqda dunyoga keladi»[1]. Bu paytda g`arbda grek madaniyatining keng tarqalgan davri, ya'ni ellinizm davri va sharqda esa, ya'ni Xitoyda xon imperiyasi davri hukmronlik qilar edi. Ellinizm-konkret tarixiy hodisa, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy, madaniy hayotda grek madaniyati va yerlik aholi madaniyatining xususiyatlarini o`zida mujassamlashtirgan tarixiy voqelikdir[2]. Bu davrda grek madaniyati aniqrog`i tili va adabiyoti A.Makidonskiy bosib olgan mamlakatlar - Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika, Markaziy Osiyo, Kichik Osiyo, Eron va Hindistongacha tarqaldi. Grek tili esa aloqa vositasi vazifasini bajardi. Ko`pgina kishilar bu vositachi madaniyatdan foydalandilar. Gretsiyada ko`p o`qigan va adabiyot bilan qiziqqan odamlarni filolog deb atashgan. Birinchi marta Aflotun Suqrotni filolog deb atagan. Filologlar antik davr adabiyoti va asarlarini to`play boshlaganlar va sharhlaganlar.

Hozirgi zamonda filologiya deganda, «Til hamda adabiyotni o`rganuvchi gumanitar fanlar sohasidagi tegishli bilimlar majmuasini» tushunamiz. Bundan tashqari «filologiya» so`zi quyidagi mazmunda ham qo`llanadi:

Filologiya - yozma yodgorliklar, ularning mualliflari, yaratilgan vaqti, yaratilish sharoitini aniqlash niyati bilan qo`lyozmalarni o`rganish jarayonida ularni til va uslub nuqtai nazaridan tahlil qilishda qo`llaniladigan usullar majmuidir. Filologlar tomonidan ko`proq qadimgi yozuvchilarning asarlari sharhlangan. Filologiyaning asosiy printsiplarini Suqrot, Arastu va Aflotun Gretsiyada ishlab chiqqanlar. Uning dastlabki vazifasi mashhur yozuvchilarning asarlarini sharhlash, ularning matn, shakl, uslub taraqqiyotini izohlashdan iborat edi. Filologlar uyg`onish davrida matnlarni sharhlabgina qolmasdan, sekin asta tanqidiy o`rgana boshladilar. Matnni tanqidiy o`rganish - asl muallifning fikrini bilish va uni talqin qilishdan iboratdir. O`rta asrlarga kelib antik asarlarni to`plash boshlandi. Bu hodisa egzegez deb yuritildi. Bunda filologlarning ikki xil vazifalari bor edi. Birinchidan, Tavrot matnlarini sharhlash va ikkinchidan, antik adabiyot matnlarini filologik sharhlash bilan shug`ullandilar.

Kapitalizm taraqqiyoti bilan milliy ajralish boshlandi. Endi filologlar faqat yodgorliklarni o'rganibgina qolmay, balki har bir millatning tilini ham o'rganishni kasb etdilar. Shuning uchun sharq tillarini o'rganish boshlandi. 1538 yildan boshlab turk, eron va arab tillari o'rganiladi. Frantsuz olimi G.Postellus 1538 yilda yozgan «Osrodstve yazo`kov» degan kitobida o'rganilayotgan 12 ta til haqida yozgan edi. XVIII asr oxirida peterburglik rus olimi P.S.Pallasaning «Sravni-telno`e slovari vsex yazo`kov i narechiy» degan kitobida o'rganilayotgan 272 til haqida fikr berilgan[3]. Bu esa filologiya fani rivojining yangi davri - renessans harakati kelishi bilan boshlandi. Renessans - yangilanish, ya'ni kapitalizm taraqqiyoti va ijtimoiy-siyosiy harakatning madaniyat bilan bog'liqligidir. Bu davrda filologlar antik asarlarni to'plash va sharhlash o'rniga tanqidshunoslik bilan shug'ullandilar.

Filologiya shunday bir turkum fanki, unda bir butun fanning yoki bir necha xalqlar guruhining tili va madaniyati (ijodiyoti) o'rganiladi. Xalq tili va madaniyati ikki yo'nalish bo'yicha o'rganiladi. 1) Og`zaki ijodiyot; 2) Yozma ijodiyot.

Yozma ijodiyot quyidagi fanlar orqali o'rganiladi.

1)Numizmatika - tangalar yordamida tilni va adabiyotni o'rganadigan fan. Tangadagi yozuvlar va rasmlar ularning qiymatini va vaqtini bildiradi. Bu yozuv orqali ma'lum davrdagi adabiyot va tilning xususitlari o'rganiladi.

2)Sfragistika - muhrlarni, tamg`alarni o'rganadigan fan. Hujjatlardagi muhrlar orqali uning qaysi vaqtga oidligi, bu davrda kimlar yashagan va qanday tilda ijod etganliklari aniqlanadi.

3)Epigrafika - qattiq jismlarga, ya'ni qabr toshlariga, masjid devorlariga va g`or toshlariga yozilgan xatni o'rgana-digan fandır.

4)Poleografiya - yozma ijodiyotning eng asosiy turi. Poleografiyaning asosiy vazifasi yozma asarlarni xuddi tarixiy manba kabi o'rganishdir. U matnning qanday qog`ozga qanday siyoh bilan yozilganligini, kim yozganligini o'rganadi. Poleografiya -matnshunoslik - tekstologiya bilan birgalikda tarixiy fan sifatida filologiyaning asosiy fanlaridan hisoblanadi.

Umuman olganda, filologiya uchta katta fanni o`z ichiga oladi.

1) Tilshunoslik.

2) Adabiyotshunoslik.

3) Manbashunoslik.

Tilshunoslik - lingvistika inson tilini o'rganadigan mustaqil fandır. Til kishilik jamiyatida eng muhim aloqa quroli bo`lib, u jamiyat tomonidan yaratilgan va unga xizmat qiladi. Tilni ijtimoiy hodisa sifatida o'rganish ekstralingvistika deb ataladi. Bunda tilning tabiati va ijtimoiy funktsiyasi, til va tafakkur, tilning mazmun tomonining nutq faoliyati kontekst va situatsiya bilan aloqasini o'rganadi. Tilni ichki sistemasini o'rganish intralingvistika deb ataladi. Bunda tilning birliklari, kategoriyalari, fonologiya, leksikologiya va gramatikasi o'rganiladi. qiyosiy-tarixiy tilshunoslik esa komparativistika deb ataladi. Bunda qarindosh tillar va turli sistemalardagi tillar chog`ishtirib o'rganiladi[4].

Adabiyotshunoslik-badiiy adabiyot haqidagi fan. Bu fan badiiy adabiyotning paydo bo'lish va rivojlanish tarixi, taraqqiyot jarayonini, hozirgi holatini, ijtimoiy roli va o'ziga xos xususiyatining nazariy masalalarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Manbashunoslik bilan matnshunoslik fani shug'ullanadi. Matnshunoslik ilmiy yoki adabiy asarlar tarixini qayta tik-lash uchun shakldan holi matnni aniqlash niyatida qo'llanila-digan usullar majmuidir. Arab filologiyasi konkret fan bo'lib, adabiy arab tili, adabiyoti va tarixiy manbalarini o'rganadi. Arab filologiyasi tarixning rivojlanishi bilan arab bo'lgan va arab bo'lmagan olimlar tomonidan yaratilgan arab tili va adabiyoti haqidagi ilmiy bilimlar majmuasini o'rganadi. Arab tili xom-som tillar oilasining eng yoshi hisoblanadi. Arab tili va adabiyoti islomdan avvalgi johiliya davriga borib taqaladi.

VIII-IX asrlarda arab grammatikasining barcha kategoriyalari ishlab chiqildi. Bu esa Qur'oni Karimning nozil bo'lishi va yozilishi bilan boshlandi. Necha asrlar davomida o'z davrining turli sohalarida bitilgan ilmiy, adabiy, tarixiy asarlar mana shu Qur'on tili bo'lmish klassik arab tilida yozildi. Arab davlatining kengayishi va islomning tarqalishi bilan fath qilingan davlatlarda ijod etgan olimlar arab tilida yozish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Natijada klassik arab tili Yaqin va O'rta Sharq, Shimoliy Afrika va Pireney yarim orollarigacha bo'lgan maydonga tarqaldi. Klassik arab tili musulmon sharqida davlatlararo xalqaro til sifatida mavqega ega bo'ldi. XIX asrga kelib yangi tarixiy sharoitlarning rivojlanishi bilan klassik arab tilining yangi varianti, ya'ni zamonaviy arab tili paydo bo'ldi[5].

Zamonaviy arab tili hozirda bugungi mustaqil bo'lgan 22 dan oshiq arab davlatlarida davlat tili maqomidadir. Zamona-viy arab tilida boshlang'ich va o'rta maktablar, maxsus, to'liqsiz va oliy maktablar, matbuot, barcha davlat hujjatlari, radio, televidenie, diplomatiya va boshqa ishlar yozma va og'zaki holda olib boriladi. Ammo alohida olingan arab mamlakatlarida xuddi jahonning boshqa mamlakatlaridagi kabi o'z shevalari bor.

Arab tilshunos olimlari va jahon arabshunos-shevashunos olimlari hozirgi zamon arab shevalarini ikki katta guruhga bo'ladilar.

1. Mashriq arab shevalari. Bu shevalar turkumiga Arabiston yarim orolida joylashgan Saudiya Arabistoni, Yaman, Birlashgan Arab Amirliklari, Ummon hamda Iroq, Suriya, Livan va boshqa shevalar kiradi. Bu shevalar o'zlarining fonetik, morfologik, sintaktik, leksik va grammatik jihatdan umumiylikka ega bo'lsalar, ikkinchi tarafdin har bir mamlakatdagi shevaning o'ziga xos xususiyati ham bor. Masalan: Yaman shevasida Tixama viloyatida ع ayn ء hamzaga almashtirib talaffuz etiladi.

عمر - أمر

Sana viloyatida esa ق qof "g" ga aylantirib talaffuz etiladi:

قال - gal

قمر - gamar

قلت - gult Iroq, Yaman, Kuvaytda:

Iroqda ك kof tovushi «ch»ga aylantirib talaffuz etiladi:

chalb - كلب

2. Arab mavrid shevalari: Bu shevalar turkumiga Shimoliy va Sharqiy Afrikadagi arab davlatlarining shevalari kiradi: masalan: Misr dialektida ق qof o`rnida ʻhamza talaffuz qilinadi.

ana ult أنا قلت

xuva ol هو قال

ج jim o`rnida «g» talaffuz etiladi.

Gamil - جميل

Gabbar - جبار

ث (sa) o`rnida «t» talaffuz etiladi.

talat - ثلاث

tabit - ثابت

ذ zol o`rnida «d» talaffuz etiladi.

dahab - ذهب

Arab shevalarining bunday tovush o`zgarishlari yuqori kurslarda kengroq o`rganiladi.

Arab xalifaligida madaniyat va arab tilining tutgan o`rni

Arablarning ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti VII asr boshlarida arab qabilalarining birlashuviga olib keldi. Islom dini bu birlashuvni mafkuraviy jihatdan mustahkamladi. Hamma uchun bab-barobar qonunlar, millatlarning etnik kelib chiqishiga qaramay din oldida hammaning huquqiy tengligi arablarga katta imkoniyatlar tug`dirdi. Rasulullohdan keyin Abu Bakr (632-634), Umar (634-644), Usmon (644-656) va Ali (656-660) birin-ketin xalifa bo`ldilar. Bular zabt etish, islom dinini tarqatish siyosatini davom ettirdilar. Arablar Afri-kaning shimoliy qismini, Eron, Markaziy Osiyo, Kavkazorti o`lkalari, g`arbda Pireney yarim orolini zabt etdilar. Xitoy chegeralaridan Ispaniyagacha bo`lgan joylarda xalifalik davlatini tuzdilar. Islom din sifatida shakllangan davrda arablar yarim badaviy elatlardan iborat bo`lgan xalq edi. Tabiiyki, ular zabt etilgan xalqlar madaniyatini zudlikda o`zlashtirdilar. «Arab madaniyati» deb nom olgan madaniyat xalifalikni tashkil etgan xalqlar madaniyati asosida islomga moslashtirib mujassamlashtirilgan madaniyat edi[6]. Arab madaniyati tarixan olganda ikki davrga ega.

Ular bir-biridan tubdan shunday farqlanadiki, ba'zida ularni xuddi ikki xil «arab madaniyati» deb tushunishga to'g'ri keladi. Ularning biri yopiq Arabiston yarim orolida tarixi va udumi bir bo'lgan, kelib chiqishi va tiliga nisbatan bir jinsli bo'lgan jamoalar madaniyatidir. Ikkinchisi «arabiy» degan nom olgan madaniyat VII asrning birinchi o'n yilligida g'arbiy Osiyo, Shimoliy Afrika va Janubiy Evropaning ba'zi viloyatlarida dunyo ahamiyatiga ega bo'lgan madaniyat rivojlangan.

Arab tili esa harakatlanish va o'zligini ifodalashda bu madaniyatni yaratgan jamiyatning asosiy vositasi bo'lib kelgan. Eng muhimi arab tili orqali qadimiy arab madaniyati va O'rta asr arab madaniyati orasidagi tushunchalar almashinuvi yo'lga qo'yilgan. Aynan arab tilida ko'pgina adabiy, ilmiy va ideologik asarlar yozildi. Bu borada biz buyuk olim Abu Rayhon al-Beruniyning quyidagi fikrini esga olamiz:

«Arab tili butun jahondagi ilmiy asarlarning yozilishiga asos bo'ldi. Bu til har bir tilga yoqimli his- tuyg'u baxsh etdi va uni bezadi. Arab tilining go'zalligi insonning qon tomirlarida oqa boshladi, garchi har bir xalq o'z ona tilini go'zal hisoblasada»[7].

Hozirgi zamon lingvist olimi A.D.Shvaytser shunday deydi: «Til komponent sifatida madaniyat tarkibiga kiradi. Til xarakteri har qanday madaniyat tarkibida ta'riflangan bo'lishi kerak. U madaniyat quroli bo'lib, madaniyatning har xil jabhalariga tegishli bo'ladi, ammo shu bilan birga u uning tarkibiga kirmasligi ham mumkin»[8].

Arab tili rivojlanishida klassik arab tili madaniyatining faqatgina ustki qatlami bo'lib xizmat qilmay, balki unga o'ziga xos xususiyatlar berdi, o'zi uning asosiy tashkilotchisi bo'ldi, shu bilan birga tarixiy chegaralarni aniqladi va uning birligini bildirdi. Uning yordamida odamlar o'zaro bir-birlarini tushunadilar, birga harakat qiladilar, fikrlashadilar va jamoa tajribasini bildira-dilar.

Madaniyat rivojida tilning uchta holatini o'rganish asosiy vazifalardan hisoblanadi, ya'ni:

1. Tilning ichki tizimi. Unda tilning ma'lum davrdagi hola-ti, uning uslubi, yozilishi va grammatik holati o'rganiladi.

2. Tilning tarixiy o'zgarish holati yoki tashqi tizimi, ya'ni vaqt o'tishi bilan tarixiy davrlar almashuvi jarayonida tilning tizimi shu davrga moslashgan holda o'zgaradi.

3. Shaxsiy bo'lmagan lingvistika tarixi. Ma'lum bir xalq tiliga chetdan boshqa so'zlar kirib kelib o'zlashadi va o'zinikidek bo'lib ketadi[9].

VII asr boshlarida arab istilosi til jamoalarining oldingi til turg'unligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi, an'analarni ushlab turgan byurokratiya va sig'inuvchilarning ijtimoiy qat-lamlarini ustuvorlikdan mahrum etdi. Arab tilidan foyda-langanlarga ustivorlik ta'min etdi. Aynan shu g'olib til si-fatida arab tiliga xalqlarning ishtiyoqi yanada oshdi. Islomga o'tish bilan hech bo'lmaganda ibodatlarni arab tilida talaffuz etish majburiyatlari qo'yilgan.

Islomga kirganlarning keyingi taqdiri va ichki tarixi, shu jumladan, tillari musulmon ja-moalarining tarkibiy qismlariga aylana bordi. Arab tili butun xalifalik xududlarigacha tarqaldi va o'z yo'lidan ko'pgina jonli so'zlashuv tillarini siqib

chiqardi. Natijada, Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika, Janubiy Evropaning ba'zi qismlarida, Eron, Kavkazorti mamlakatlarida va O`rta Osiyoda ling-vistika sezilarli o`zgardi. Ikki asrdan ortiq vaqt, ya'ni Markaziy davlat bo`lgan davr ichida yuzaga kelgan til holati ba'zi o`lkalarda turg`unlik kasb etdi. U bizning kunlarga uncha ahamiyat kasb etmagan o`zga-rishlar bilan etib keldi.

Ilk islom davrida Arabiston yarim orolida va arab fathlarida esa undan tashqarida yagona arab so`zlashuv tili paydo bo`ldi. Arab tilining xalifalikda mustaxkam o`rin tutib qolishida Ummoviylar xalifidan biri bo`lgan Xalif Abdul Malik (685-705) davri katta ahamiyatga ega. U o`zining hukmronlik davrida davlat ishlaridagi hujjatlarni yuritishni arab tilida olib borgan. Boshqa tillarda yozishni man etgan.

Ikkinchidan, pul birligi yo`lga qo`yilib, tanga chiqarish ishlari bilan shug`ullangan. Bu pul birliklari Vizantiya va Sosand Eronidan qolgan edi. Yangi namunadagi tangalarga esa arab afsonalaridan tasvirlar zarb etilgan. Arab tilining bu ikki asosiy faoliyati, albatta, uning davlat tili bo`lib qolishiga katta imkoniyat berdi. Shu bilan birga xalifa Abdul Malik tomonidan arab yozuvining rivojlanishiga tomon qadam qo`yildi[10].

Biz bilamizki, VII-VIII asrlarda Movarounnaxr va Xurosonda ham arab tili va arab yozuvi keng tarqalgan edi. Bu borada ushbu o`lkalarda arab tili va arab yozuvi o`rgatish uchun maxsus maktablar ochilgan edi. Akademik I.Yu.Krachkovskiy fikricha: «VIII asrning birinchi yarmida arab tili butun Xuroson va Movarounnahrda davlat boshqaruv tili sifatida ishlatildi va undan, hattoki, erlik aholi ham foydalandi. Masalan: Xorazmlik matematik Muso al-Xorazmiy (780-847), farg`onalik astronom Ahmad al-Farg`oniy (IX asr), O`rta Osiyolik filosof olim al-Farobiy (X asr), lingvist olim Mahmud Koshg`ariy (XI asr), buyuk olimlar al-Beruniy (973-1048) va Ibn Sino (980-1037) o`z asrlarini aynan arab tilida yozishgan. O`rta asrlarda Evropada lotin tili xalqaro til hisoblanganidek, arab tili ham Shimoliy Afrika, Yaqin va O`rta Sharqda shunday mavqe'ga ega edi.

O`rta Osiyoda arxeologik tadqiqotlar natijasida arab yozuvida bitilgan VIII asrga oid ikkita yozma yodgorlik topilgan:

Birinchisi, qo`yning kurak suyagiga yozilgan arab yozuvi. Unda faqat arab alifbosidagi harflar bitilgan. Ikkinchisi esa, qadimgi arab hujjati bo`lib, sug`d shohi Devashtichning Xuroson hokimi Amir al-Jarroh ibn Abdullohga yozilgan maktubidir (718-719)[11]. Klassik arab tili haqida biz faqat qadimgi yozuvlar va asarlardan emas, balki filologlarning yozuvlaridan ham bilib olsak bo`ladi. Yangi musulmon davrining II asri tugashiga qadar arab grammatikasi bo`yicha katta ish tugatilgan edi va u tan olinib, bizning kunlarga etib keldi. Bu asarlarda arab tili grammatikasi to`liq tartibga solindi va aniq suratda yozildi.

Savollar:

1. Filologiya o`z ichiga qanday fanlarni oladi?
2. Tilning uch holati o`rganish madaniyat rivojida asosiy vazifalardan hisoblanadimi?
3. Yozma ijodiyotning qanday turlarini bilasiz?
4. Arab madaniyati haqida nimalarni bilasiz?
5. Xalif Abdul Malik davrida arab tilining rivojlanishi uchun qanday ishlar amalgam oshirilgan?

Tayanch iboralar:

Filologiya, og`zaki va yozma ijodiyot, poligrafiya, tilshunoslik, manbashunoslik, adabiyotshunoslik, ellinizm davri. Pul birligi, arabiy madaniyat, tilning tarixiy `zgarishi, lingvistika tarixi.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Sharqda rennesans
2. Arab nahvi tarixidan

Adabiyotlar ro`yhati:

1. Konrad N.I. Zapad i Vostok. -M., 1972, -S.7.
2. Sulaymonova F. G`arb va Sharq. -T., 1998, -B.161.
3. Oranskiy I.M. Vvedenie v Iranskuyu filologiyu. -M., 1960. -S.60.
4. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. -T., 1981, -B.9.
5. Xolidov B.Z. Uchebnik arabskogo yazo`ka. -T., 1981. -S.8.
6. Krachkovskiy I.Yu. Sb. Beruni. -M.-L., 1950. -S.65.
7. Sovremennaya lingvistika. Teoriya, problema` i metodo`. -M., 1976. -S.21.
8. Belyaev E.A. Arabo`, islam i arabskiy xalifat v rannee srednevekovye. -M., 1965. -S.187.

Ma`ruza 2. Xom-som tillar oilasi

Reja:

- 1. Tillarning klassifikatsiyasi**
- 2. Xom-som tillari va ularning tarmoqlanishi**
- 3. Xom-som tillar oilasining umumiyliigi**
- 4. Arab tili grammatikasi va lug`atini o`rganishda o`z hissasini qo`shgan olimlar**

Xom-som tillari oilasi Dunyo tillarining xaritasiga nazar tashlansa, tillarning va shevalarning nihoyatda ko`pligi va ularning vazifasi ham xilma-xilligiga shohid bo`lamiz. Masalan: faqat Hindistonda 720 ga yaqin til va shevalar, Filippinda 80 ga yaqin til va shevalar mavjud. Hozirgi zamon tilshunosligining asosiy masalalaridan biri dunyo tillarini o`rganish va umumlashtirish asosida ularning tasnifini tuzishdan iboratdir. Har qanday ilmiy tasnif umumiy belgilar va printsiplarga asoslanadi.

Tilshunoslikda tillarning bir necha tasnifi mavjud. Bularning eng muhimi quyidagilardir: 1) areal; 2) tipologik; 3) funktsional; 4) geneologik.

1.Areal (jug`rofiy) tasnifda jahon tillarining xaritasi, turli mamlakatlarning til tomonidan xarakteristikasi, ayrim tillar qo`llanish doirasining kengayishi kabi masalalar o`z ifodasini topadi.

2.Tillarning tipologik tasnifi tillarning grammatik qurilishiga asoslanib, ularning asosiy tiplari belgilanadi.

3.Tillarning funktsional tasnifi quyidagi belgilarga asoslanadi: tilning o`zi tegishli bo`lgan xalq tarixi bilan aloqasi va tilning jamiyatdagi vazifasi.

4.Tillarning geneologik tasnifi til hodisalarini tarixiy printsiplarga asosida o`rganib, tillarning qarindoshlik munosabatini aniqlaydi.

XVII-XVIII asrlar davomida turli tillarni o`rganish natijasida to`plangan ma'lumotlar ularni bir-biriga qiyoslab o`rganishga omil yaratdi. Bularning natijasida qiyosiy-tarixiy tilshunoslik tiklanib bordi. qiyosiy-tarixiy metodning shakllanishiga T. Postellus (1510-1581). I. Skaliger (1540-1609), F. Boll (1791-1861), Ya. Grimm. (1785-1863) A.X. Vostokovlar asos soldilar. Tillarning geneologik tasnifiga ko`ra er yuzida 16 xil til oilalari mavjud. Masalan: hind-evropa tillari oilasi, xom-som tillari ilasi, kavkaz tillari oilasi, turkiy tillar oilasi va h.k.[12]

Biz o`rganayotgan arab tili xom-som tillar oilasining somiy tillar tarmog`iga tegishlidir. Somiyshunoslik sharqshunoslik tarmog`idir. U juda qiziqarli fan. Uning predmeti Shimoliy Afrika va Old Osiyodagi qadimdan istiqomat qilayotgan xalqlar tilini va unga taalluqli fanlarni o`rganadi. Nemis olimi A. Shlyotser izlanishlariga ko`ra, «Som» Nux payg`ambarning avlodlaridan birining nomi, «Xom» esa boshqa biri-ning nomi deb ifoda etiladi. Demak, somiy - Som avlodlari, xomiy esa Xom avlodlari tili va madaniyatini o`rganadi. Arab tili tarixan bu til oilasidagi eng yosh til hisoblanadi. qadimgi somiy tilida bobilliklar, shshuriylar, ibriylar, finikiylar,

oromiylar va arablar gaplashganlar. Somiyshunoslik fan sifatida 1781 yil Evropalik nemis olimi A.

Shlyotser tomonidan o`rganila boshlandi va fanga kiritildi.

Frantsuz tilshunos olimi M. Koen, nemis olimi I. Fridrix, afrikashunos D.A. Olderogg va somiyshunos I.M. Dyako-nov shunday xulosaga keldilarki, xom-som tillarining o`xshash tomonlari bir-biriga juda yaqin. Bu esa xom-som tillar oila-sini tuzishga yordam beradi. Oxirgi paytlarda xom-som tillar oilasini geografik o`rniga qarab ikki nom bilan atash tashabbusi olg`a surildi, ya'ni:

1. Afro-Osiyo tillar oilasi yoki qizil Dengiz bo`yi tillar oilasi.
2. Afro-Arabiy tillar oilasi.

Ammo xom-som tillar oilasi bo`lib qolaverdi. Somiyshunos olim I.M.Dyakonov somiy tillar oilasini besh tarmoqqa bo`lib, tasnif qildi[13].

1. Misr tarmog`i.
2. Barbar - Liviya tarmog`i.
3. Som tarmog`i.
4. Chad tarmog`i.
5. Kushiylar tarmog`i.

1. Misr tarmog`iga qadimgi Misr tili kiradi. U bir necha darajaga bo`linib o`rganiladi. qadimgisi eramizdan avvalgi uch minginchi yilda, yangisi esa eramizning III-XVI asrida mavjud bo`lgan. Hozir cherkov tili hisoblanadi. Bu til qibt tilidir (qibt - xristiyanlar tili hisoblanadi).

2. Barbar - Liviya tarmog`i. Yangi zamondagisi uch yuzga yaqin sheva va lahjalarga ega. Ularning asosiylaridan biri tomashiq tilidir. Bu tavorix xalqlarining tilidir. Bu tilda arabizmlar deyarli yo`q. U Sahroi Kabirda tarqalgan. Yana bir til tashilxit tilidir. Bu tilning hozirgi nomi «shilx» bo`lib, Mavritaniyada tarqalgan. Rif tili Marokashda tarqalgan, yana bu tarmoqqa kiruvchi xalqlar Senagaldan Misrgacha bo`lgan joy - Siva vohasida yashaydi.

3. Som tarmog`i. Bu tarmoq juda katta tarmoq hisoblanadi va olimlar tomonidan yaxshi o`rganilgan. Uning o`zi to`rt guruhga bo`linadi.

a) shimoliy chet yoki shimoliy-sharqiy guruh. Uning qadimgi va o`rta darajasi bor. Bu guruhga akkad tili va uning ikkita katta shevasi-bobil va ashshuriy shevalari kiradi;

b) shimoliy-markaziy va shimoliy-g`arbiy guruh. Uning qadimgi, o`rta va yangi darajasi mavjud. qadimgi darajaga xananay, oromiy, ug`oriy tillari; o`rta darajaga qadimgi yahud tili, finikiy va bir qancha oromiy lahjalar; yangi darajaga yangi suriya shevasi va Suriyadagi oromiylar shevasi kiradi;

v) janubiy chet yoki janubiy-g`arbiy guruh. Bu guruhga janubiy arab tili va uning ko`p shevalari kiradi. Qadimgisi haqida etarli ma'lumot yo`q. O`rta darajasi Sobey, Miney, Katabon, Xadramout shevalari va habash tilining (Efiopiya) ko`p tarmoqlari; yangi darajasiga janubiy arab tili-mehriy, shahriy, soqatra tillari va unga yaqin bo`lgan shevalar kiradi;

g) janubiy-markaziy yoki Arabiston tili. qadimgi darajasiga qadimgi arab tili, o`rta va yangi darajasiga klassik, zamonaviy arab tili va ularning barcha shevalari kiradi.

4. Chad tarmog`i. Bu tarmoqning faqatgina yangi darajasi mavjud va u to`qqiz guruhga bo`lib o`rganiladi. U deyarli yuz xil tilni o`z ichiga oladi. Ular ichida eng asosiysi xaos tilidir. Bu tilda asosan Chad, Kamerun, Nigeriya aholisi gaplashadilar.

5. Kushiylar tarmog`i. Yangi darajadagi til hisoblanadi. Ya'ni bu guruhga kiruvchi barcha tillar hozirgi shakldagina mavjud. Ularning o`tmishidan bizlarga hech qanday ma'lumot qol-magan. Bu tarmoq quyidagilarga bo`linadi:

1) Shimoliy tarmoq - badaviy tili - asosan bu tilda so`zlashuvchilar Sudan Respublikasida yashaydi.

2) Sharqiy tarmoq - a) saha - afar tili - Eritriyada va Efiopiyaning shimoliy-sharqiy qismida yashovchi xalqlar tili.

b) oromo tili - Efiopiyaning g`arbida, janubida va markazida yashovchi aholi tili va Keniyaning shimoliy-sharqiy aholisi tili.

v) samoli tili -Samali Respublikasi va Efiopiyaning janubiy-sharqiy aholisi, Sharqiy Keniya aholisi tili.

3) Markaziy tarmoq - agau tilining mayda shevalari kiradi. Bu tilda Efiopiyaning shimoliy aholisi va Eritriya aholisi so`zlashadi.

4) g`arbiy tarmoq - Habashistonning g`arbiy chekkalarida yashovchi aholi gaplashadigan - kaffa, volamo chara va gimirra shevalari kiradi.

5) Janubiy tarmoq - iraku va mbugu tillari kiradi. Bu tilda gaplashuvchi aholi Tangan o`lkalarida (Tanzaniyada) yashaydilar. Xom-som tillar oilasining umumiylik. Bu oilaga kiruvchi til va lahjalar jiddiy farqlansada, tilshunoslikning qiyosiy-tarixiy metodiga asoslanib o`rganilsa, ularda o`xshash umumiylik borligini ko`ramiz. Bu umumiylik quyidagilarda yaqqol ko`rinadi:

1. Fonetik umumiylik:

a) barcha xom-som tillarida unlilarning cho`ziq va qisqa ko`rinishlari mavjud:

a-a- fatha - fatha alif

اَ ← اِ

i-i- kasra - kasra yoy

ي ← يِ ← يَ

u-u- damma - damma vov

و ← وِ ← وُ

b) undoshlarning uchlik guruhi mavjud, ya'ni,

ح خ ه، ث س ص، ذ ز ظ

v) so`z hech qachon unli tovushdan boshlanmaydi:

Masalan: opa, uka, aka singari;

g) shuningdek, qo`sh undoshli boshlanish ham so`zlarda uchramaydi, masalan: ekskavator, traktor kabi.

2. Leksik umumiylik. Evropalik olim M.Koenning kuzati-shicha, barcha to`rt tarmoq uchun umumiy bo`lgan uch yuzta so`z bor. To`rt tarmoq uchun umumiy bo`lgan bir necha o`zak mavjud. Ular bir necha o`ndan oshmaydi. uchta tarmoq uchun yuzta va ikkita tarmoq uchun besh yuzta umumiy so`z yoki o`zak bo`lishi mumkin.

Biz bu borada som va xom tillarda gaplashuvchi xalqlarning ajralishi juda qadim zamonlardan, eramizdan avvalgi VI va IV ming yilliklarda, sodir bo'lganini unutmasligimiz kerak. Bu davrda xom-som xalqlarining asosiy vatani bo'lmish Saxroi Kabirda qurg'oqchilik boshlanadi. Natijada bu xalqlar avval ikki tomonga - shimolga va ja-nubga qarab tarqaladi. Shundan so'ng besh tarmoqdan iborat xom-som xalqlari Afrika qit'asini, Arabiston yarim oro-lini, Old Osiyoni egallab oladilar.

3. Morfologik umumiylik:

a) barcha xom-som tillardagi umumiy xususiyat o'zakning undosh harfdan iborat bo'lishidir. Odatda o'zak uch undoshli, to'rt undoshli va kamroq besh undoshdan iborat bo'ladi.

Masalan: كُتِبَ، تَرَجِمَ، سَفَرَجَل

b) unlilar ba'zan qo'shimcha undoshlar bilan o'zak mazmunini ta'kidlash yoki grammatik kategoriyani ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Masalan:

كَاتِبَ، كُتِبَ، كِتَابَ، كُتِبَتْ، اُكْتُبَ

v) barcha xom-som tillarida ichki flektsiya mavjud.

Masalan:

طَالِبَ، طَالِبٌ، طَلِبَةٌ

g) shuningdek suffiksatsiya ham mavjud, bunda so'zlarning ichki qurilishi deyarli o'zgarmaydi.

Masalan:

مُعَلِّمَةٌ-مُعَلِّمَاتٌ، مُتَكَلِّمٌ-مُتَكَلِّمُونَ

d) barcha xom-som tillarida ikkita jins kategoriyasi mavjud:

مُؤَنَّثٌ - muannas مَذَكَّرٌ - muzakkar

e) barcha tillarda ismlarning grammatik sinfi mavjud.

Masalan: «B» sinfi - yirtqich hayvonlarning nomlarini bildiradi:

ثُعْلَبٌ - tulki ذئبٌ - bo'ri دبٌ - ayiq

«L» yoki «R» sinf esa uy hayvonlari nomlarini bildiradi.

نَمْلٌ - chumoli بقرةٌ - sigir

جَمَلٌ - tuya حمارٌ - eshak

yo) barcha xom-som tillarida, jumladan, arab tilida butun va yakka tushunchasi mavjud:

شَجَرٌ - daraxt شجرةٌ - bitta daraxt

بصلة - bitta piyoz بصل - piyoz
Bu ilmiy tilda «matriarxat» deyiladi.

Arab tili grammatikasi va lug'atini o'rganishda o'z hissasini qo'shgan olimlar

Bizga ma'lumki, arablar o'zlarining tillarini, uning boyligini, ravnaqi va serjiloligini juda qadrlashadi. Arab olimlari tomonidan arab tili namunalarini yig'ish va ularni ilmiy o'rganish uchun juda katta mehnat sarf qilingan. Arablar o'z tillarini saqlashni o'zlarining milliy burchlari deb biladilar.

Klassik arab tilining asosi Qur'oni Karim tilidir. Ma'lumki, islomni qabul qilgan arab bo'lmagan xalqlar uni o'qishda jiddiy lug'aviy kamchiliklarga yo'l qo'yishadi. Bu jumboq Qur'onning o'zini to'g'ri, xatosiz o'qishni uyushtirish vazifasi bilan bog'lanib ketadi. Arab tilshunosligi VII asrning ikkinchi yarmi va VIII asrning birinchi yarmida Basra va Kufa shaharlarida paydo bo'ladi. Arablarning til haqidagi qoidalar nahv deb atala boshladi. Arab nahvining yaratilishida mashhur grammatik olim Abu Ubaydning quyidagi fikrlarini eslaymiz[14].

Hazrat Ali ibn Abu Tolibdan buyuk grammatik olim Abul Asvad ad-Duali arab tilining nozik tomonlarini o'rgangan edi Lekin bu to'g'rida hech narsa yozib qoldirmagan. Bir kun eronlik Amir Ziyod ibn Abixa ad-Dualining yoniga kelib, Allohning kitobi bo'lmish Qur'oni Karimni o'qishda odamlarga yordam beradigan biror bir narsa yozish to'g'risida taklif qiladi. Avvaliga ad-Duali ikkilanib, hech narsa yozmaydi. U shahar kezib yurganda, bir kishi «At-Tavba» surasining uchinchi

إن الله برىء من المشركين ورسوله

oyatidagi "rasuluhu" so'zini "rasulihi" deb xato o'qiyotganini eshitib qoldi.

Undan quyidagi tarjima kelib chiqadi:

«Darhaqiqat, Alloh mushriklardan va o'z elchisidan holi»; aslida esa:

«Darhaqiqat Alloh va uning elchisi mushriklardan holi» bo'lishi kerak edi. Abul-Asvad buni eshitib, «Men shunchalik borar deb o'ylamagan edim» deb, o'zining til haqidagi qoidalar majmuasini yozadi[15]. Uning bu majmuasi "النحو..." deb atala boshlanadi.

Abul-Asvad ad-Duali (680 yoki 688-718) arab grammatikasining asoschisi hisoblanadi. U Basralik juda buyuk olim bo'lib, arab nahvining ravnaqiga o'z hissasini qo'shdi. Grammatikadagi unli tovushlarni (harakatlarni) - (نقط الإعراب) va undoshlar-ning ostki va ustki nuqtalarini (نقط الأعجام), aniqlovchini, bog'lovchilarni, so'roq va undov gaplarni إن kabi yuklamalarni ajratib chiqdi va grammatik jihatdan sharhlab berdi: Abul Asvad ad-Duali harakat belgilarini va Nasr ibn Osim nuqtalarni ixtiro qilmaguncha, ular arab yozuvida mavjud emasdilar.

Johiliyatdagi yoki hijriy asrning birinchi yarmidagi asarlarda harflar nuqta va harakat belgilari, shuningdek, tovushni qisqa va uzun cho'zish (madd) alomatlaridan xoli edi. Payg'ambarimizning (s.a.v.) maktublari ham nuqta va belgilersiz edi. Usmon Musxaflarida ham ular yo'q. Arab tilshunosligining rivojiga juda ko'p basralik va kufalik olimlar o'z hissalarini qo'shdilar.

Bulardan Isa ibn Umar as-Saqafiy (766 y.)- grammatik olim, Hofizi Qur'on, Basra grammatika maktabining asoschilaridan biri va mashhur olim Sibaveyhiyning ustozlaridan bo'lgan. Uning «الجامع» (To'plam) va «الإكمال» yoki «المكمل» deb ataluvchi asarlari arab tilining grammatik qoidalarini ifodalab berdi.

Al-Xalil ibn Ahmad (718-791) arab tilshunos olimi, filolog Sibveyxiyning ustozlaridan biri hisoblanadi. U «كتاب العين» kitobi bilan VIII asrning ikkinchi yarmida tashkil qilingan lug'atchilik maktabiga asos soldi. U bu kitob-da so'zlar tarkibini alifbo asosida emas, balki fonetik asosda qurgan edi. U musiqashunos va aruzshunos olimlardan bo'lgan. Al-Xalil she'rni musiqa bilan bog'lashga urinishlari bilan aruz haqida risola yaratdi. O'sha zamon bilimdonlarining fik-richa uning aruzdagi kashfiyoti ilohiy kashfiyot edi. Uning grammatik asarlari bizgacha etib kelmagan.

Shogirdi Sibaveyhiy tomonidan uning ma'ruzalari qayta ishlanib, bir kitob shakliga keltirilgan va «Sibaveyhiy kitobi» deb nom olgan. 565 bobdan iborat bo'lgan «الكتاب» dagi grammatik sharhlar o'zining mukammalligi va to'liqligi bilan tengsizdir. «الكتاب» ning izchilligiga yana bir dalil shuki, undan keyin o'tgan barcha grammatik olimlar unga birorta jiddiy yangilik qo'sha olmadilar. Balki uning ayrim boblariga aniqlik kiritish bilan shug'ullandilar.

Sibaveyhiyning asli nomi Abu Bashir Amr ibn qambar bo'lib, arab oilasidan chiqqan. Basrada as-Saqafiy va al-Halil qo'lida tahsil olgan. Bog'dodda Horun ar-Rashid saroyida ham hizmat qilgan. Qirq yoshga etganda Eronning Sheroz shahri yaqinida Bayda qishlog'ida 796 yili vafot etgan. Sibaveyhiy Basra nahv maktabining bosh asoschilaridandir. Tilshunoslikka oid mashhur risolasi «الكامل» bo'lib, bunda nasrnavislik va nazmdan namunalar bor. Basralik al-Mubarrad (898) yil arab shoiri, filolog olim. U leksika bilan shug'ullangan. Uning «Tilda yig'ilgan so'zlar» (الجمهورية في اللغة) nomli va «So'zlarning kelib chiqishi» (كتاب الشقاق) nomli kitoblari juda mashhurdir.

Abu Ja'far Muhammad ar-Ruasiy (805) Kufa grammatika maktabining asoschisi hisoblanadi. Uning «كتاب الأفراد و الجمع», ya'ni «Birlik va ko'plik son xaqidagi kitobi» arab grammatika ravnaqiga o'z hissasini qo'shdi. Muaz al-Xarra ham bu sohada faoliyat ko'rsatdi.

Abu Xasan ibn Xamza al-Kisaiy[16] (805 yil) Kufa grammatik maktabining eng yirik namoyondalaridan biridir. U ko'proq xalq tilini o'rgandi. Ustozlari Muaz al-Xarra va ar-Ruasiy-dir. Uning bir kitobi «Xalq tilidagi xatoliklar deb ataladi» . «رسالة في لحن العامة» kitobida adabiy til grammatik qoidalari, ularning lahjalarda o'zgarishi haqida fikr bildiradi. Uning «كتاب الحفاظ», ya'ni «Hofizlar kitobi» dan Qur'onni yodlagan hofizlar foydalanganlar.

VIII asrdan arab lug'atchiligi to'rt maktabga bo'lib o'rgani-ladi. Birinchi maktab asoschisi al-Halil ibn Ahmad «كتاب العين» nomli lug'atning muallifidir.

Ikkinchi maktab asoschisi ibn Durayd (837-933) izohli lug'at yozgan. Uchinchi maktab asoschisi Ismoil al-Javhariy (1007 y. vafot etgan). U «tilshunoslik imomi» deb nom olgan. Uning qirq ming so'zni o'z ichiga olgan lug'atining tuzilishi so'z oxiridagi undoshga asoslangan. Masalan: جلس so'zini س harfidan qidirish kerak.

Javhariy yashagan davr qofiya davri hisoblan-gan. Olimlar so`zga shunday chechan edilarki, oddiy jummalarni ham saj' bilan gapirar edilar.

To`rtinchi maktab asoschisi Abul Qosim ibn Ahmad ibn Umar az-Zamaxshariy bo`lgan. U yirik tilshunos olim bo`lib, asli xorazmlik, Zamaxshar qishlog`ida tug`ilgan (1075-1144). U 55 ta asar yozgan. Uni «جار الله»- «Allohning qo`shnisi» deb atashgan. Uning «الفائق في غريب الحديث» asari mavjud. Bu asar hadis ilmi-da ishlatiladigan kamyob so`zlar lug`atidir. Bu kitob lug`atchilik bo`yicha Zamaxshariyning birinchi kitobi bo`lib, shu asari bilan lug`atchilikning to`rtinchi maktabiga asos soldi. 1945-1948 yillarda bu asarning uch jildli kitobi qohirada nashr qilin-di. Birinchi nashri Haydarobodda, ya'ni Pokistonda chop etildi.

Bu kitobda birinchi va ikkinchi undoshlar alifbo bo`yicha tuzil-gan.

Uchinchi undosh esa e'tiborga olinmagan. Uning ikkinchi kitobi «اساس البلاغة» - «Chiroyli gapirish yoki so`zamollik asos-lari» deb ataladi. Bu lug`atda birinchi, ikkinchi, uchinchi un-doshlar alifbo tartibida olingan. Hozirgi lug`at kitoblarimiz shu kitob asosida tuzilgan. Bu asar balog`at ilmiga bag`ish-langani. Zamaxshariyning quyidagi asarlari ham mashhurdir:

«مقدمة الادب»- tematik lug`at.

«الكشاف» - «Ochib tashlovchi» asari Qur'on ma'nolarini badiiy tasvir vositalarida tahlil qiladi. Bu asar Qur'onning ilmiy-grammatik va izohli tahlili yuzasidan bajarilgan ish hisoblanadi. «المفصل» - «Batafsil yozilgan» asari bilan grammatik olim hisoblanadi.

«الانذج» - «Namuna» asari nahv ilmiga bag`ishlangan. O`ttiz sahifadan iborat qisqa bu qo`llanma 1917 yilgacha O`rta Osiyoda arab tili darsligi vazifasini o`tagan.

Shunday qilib, arab ilmini rivojlantirishda o`zining ulkan hissasini qo`shgan olimlar juda ko`pdir. Ular o`zlarining o`chmas asarlari bilan dunyo madaniyatini boyitdilar. Hozirgi kungacha ularning bu asarlaridan keng foydalanilmoqda.

Savollar:

1. Tillar qanday tasniflanadi?
2. Xom-som tillarining tarmoqlari?
3. Xom-som tillarining umumiy belgilari qanday?
4. Arab tili rivojiga o`z hissasini qo`shgan olimlardan kimlarni bilasiz?

Tayanch iboralar:

Xom-som tillari, Grammatik sinf, tarmoq, guruh, Barbar –liviya, somiy, kushiy, chad, Misr lug`atchilik maktabi. Izohli lug`at. Sibavayhi, Zamaxshariy.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Arab filologiyasi-sharqshunoslik fani
2. M.Zamaxshariy hayoti va ijodi

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. -T., 1981
2. Semitskie yazo'ki. -M., 1965.
3. Zvegintsev V.A. Istoriya arabskogo yazo'koznaniya. -M., 1958.

Ma'ruza 3. Arab tili va arab yozuvining paydo bo'lishi

Reja:

1. **Arablarining qadimiy davlatlari va ularning arab tili rivojiga qo'shgan hissi**
2. **Arab yozuvining kelib chiqishi**
3. **Arab tilining paydo bo'lishi**

Arab tilining vatani qizil dengiz, Hind okeani Fors ko'rfazidan tortib Frot daryosigacha maydonni egallaydi. Arabiston juda katta yarim orol hisoblanib, uning maydoni 3 mln kv kmga teng[17].

Arablarining o'zi Arabistonni «جزيرة العرب», deb nomlashadi. Arabiston yarimorolining ko'p qismini sahro va cho'llar tashkil etadi. Iqlimi juda issiq, yomqir kam yoqadi. qadimiy arablar o'troq va ko'chmanchi bo'lib (badaviy) kun kechirishgan. O'troq arablar Arabiston yarim orolining janubiy qismida yashaganlar. Ular tijorat va qishloq xo'jaligi bilan shuquqlanganlar. O'troq arablar shahar-lar, madrasalar va ulkan qasrlar qurishgan. Ular Arabiston yarim orolining janubiy qismida va boshqa chekkalarida yirik qadimiy arab davlatlarini barpo etganlar. Bu davlatlar VII-VIII asrgacha Arab xalifaligi tashkil topishi bilan o'z faoliya-tini tugatgan. Ularning ba'zi birlari bilan tanishtirib o'tamiz.

1. **Ximyoriylar davlati.** Bu davlatga Tubbaa dinastiyasi hukmronlik qilgan. Eramizning 525 yilgacha bu davlatga Zu-Nuvos boshchilik qilgan. Bu davlat Arabistonning janubiy qismida joylashgan. Bu davlatning poytaxti Sana shahridagi «hamdon» qasri bo'lgan.

2. **Laxmiylar davlati.** Munziriylar dinastiyasi hukmronlik qilgan. Bu davlat Iroqda bo'lib, uning poytaxti Hira shahri bo'lgan. III asrdan boshlab, to musulmonlar bosib olgan vaqtgacha o'z ishini olib borgan. Lahmiylar davlati fors shoxlari qo'l ostida bo'lgan. Laxn ibn Ali qabilasi bu davlatda yashagan. Bu davlatni boshqargan eng yirik hukmronlardan an-Nu'mon (403-431 yillar) katta shuxrat qozongan bo'lib, juda ko'p qasrlar, qal'alar qurdirgan. Shuningdek, al-Munzir III (505-554 yillar) ismli hokim ham o'zining shuhrati bilan «Mous-samo» - «ماء السماء» degan nom olgan. Keyingi Amr Hind (554-568 yillar) degan hukmdor esa bu davlatda til, adabiyot va madaniyatning rivojiga o'z hissasini qo'shgan. U o'zining saroyiga butun Arabiston yarim orolida yashovchi shoirlarni taklif etib, mushoiralar o'tkazgan. Qolib chiqqanlarni rag'batlantirgan.

3. **G'assoniylar davlati.** Bu davlatda Jafn ibn Amr boshchiligidagi qabila yashagan. Bu davlat Arabiston yarim orolining shimoliy qismi, ya'ni Suriyada

joylashgan bo`lib, siyosiy jihatdan Vizantiya hukumronligi ostida edi. Uning poytaxti Jillak shahri edi. Bu davlatning mashxur hukmdorlaridan biri al-Haris II (529-669) bo`lib, uni cho`loq, ya'ni «الاعراج» deb atashgan. U Xira shoqining ustidan g`alaba qozongan. Bu hukmdor ham o`z saroyida mushoiralar o`tkazgan.

4. **Kindlar davlati.** Bu davlat Najda bo`lib, ya'ni Suriyaning shimoliy qismi va Iroqning sharqiy qismidagi maydonni egallaydi. Bu davlat 450-540 yil faoliyat ko`rsatgan. Qasida janrining asoschisi shoir Imrul Qays kindlardan bo`lib, bu davlatda madaniyat, til va adabiyot rivojlanishiga o`z hissasini qo`shgan.

5. **Nabotiy davlati.** Bu hozirgi Iordaniya quduqlarigacha cho`zilgan bo`lib, uning poytaxti Petro shahri edi. «Petro» lotin tilida «tosh» degani, ya'ni bu shahar toqlarni yorib toshlardan qurilgan edi. Uning hukmdorlaridan biri bo`lmish Rabbil II (70-106 y.) zarb qildirgan tangalar juda ko`p miqdorda bizgacha etib kelgan. Petro er.avv. III asrdan to eramizning V-IV asrigacha mustaqil davlat hisoblangan. Bu davlatda yashovchilar arablarning milliy yozuvi poydo bo`lishida o`z hissalarini qo`shdilarki, bu til va yozuv qanuzgacha o`rganilmoqda va o`zining buyuk iloqiy mavqeini saqlab kelmoqda.

Nabotiydardan arab alifbosidagi 6 ta harf olingan. Nabotiy yozuvi bilan ko`chmanchi arablar shuqullanganlar. Bu davlat arab xalifaligi barpo bo`lguncha eng mashhur davlat hisoblangan.

6. **Palmira davlati.** Bu davlat Rim imperiyasiga qo`shni joyda ya'ni, Suriyaning sharqiy qismida joylashgan. Poytaxti Tadmur shahridir. hozirda tarixiy yodgorliklar sifatida saqlanib qolgan. Bu davlatlarda asosan er. II-III asrida oromiy tilda gaplashuvchi qabilalar yashagan.

Ularning oxirgi hukmdori Zebo ismli ayol bo`lgan. hozirda ham Oromiylar Damashqdan 30 km. uzoqdagi Anti-Livan toqlarida (20-30 mingga yaqin) yashaydilar. Oromiylar yozuvidagi 22 harf va rahamlardan arab alifbosini tuzishda foydalanilgan.

Arab yozuvi tarixi

Bizga ma'lumki, arab alifbosi o`z-o`zidan yaratilmagan. Uning yaratilish tarixi juda uzun. qadimgi arablar tuyalar-ning kurak suyaklariga, palma daraxtining keng shoxlariga, silliq oq toshlarga, teriga, loyga va Misr papirusiga yozishgan. qadimiy Misr yozuvi arab yozuvining paydo bo`lishida dastlabki manba hisoblanadi. qadimiy Finikiya xalqi va Livan toqlarida yashovchi xalqlar asosan tijorat bilan shuqullanganlar. Shuning natijasida ular Misr davlatiga tez-tez borib turardilar. Ular qadimgi misr yozuvidan 15 ta harfni o`z o`lkalariga olib kelib, unga shakl jihatdan o`zgartirish kiritib, yana boshqa harflar qo`shib finikiy alfvitini tuzib chiqadilar (er.av. VII asrdan boshlab) keyinchalik esa bu xatdan ikki guruq ajralib chiqdi:

1. Musnad (ximyoriylar yozuvi).
2. Oromiy.

Oromiy va musnad yozuvi - Arabiston yarim orolining janu-bida yashovchi somiy xalqining yozuvidir. Uning shaxobchalari esa samudiy, safaviy, laxyoniy yozuvlaridir. Keyinchalik bu yozuvlar tez rivojlanib Arabiston yarim orolining shimoliy qismiga tarqaldi.

Bu yozuv eramizning II-III asrlarida Suriya, Iordaniya, Iroq davlatlarigacha etib bordi. Eramizning III asri, ya'ni melodiy 270 yilda nabotiy yozuvi vujudga keldi (eramizning III asridan to V-VI asrgacha). Nabotiy yozuvidan bir kancha yozuvlar - xiriy, qijoziy - tarqaldi.

harfli yozuv shimoliy arablarda eramizning IV asrida pay-do bo'ldi. Oromiylardan 22 harf va nabotiylerden 6 harf olindi. hammasi bo'lib, 28 ta harf vujudga keldi. Bu yozuvdan mustaqil ravishda foydalandilar. Birinchi arab yozuvida bi-tilgan yodgorlik Damashqning janubiy-harbidagi «An-Nimar» qishloqidan topilgan. Uning yozilish sanasi eramizning 328- yiliga, qadimiy yil taqvimi bo'yicha 223-yilga to'g'ri keladi. U 116 sm. X 33 sm. qabr toshiga hammasi bo'lib besh qator o'yib yozilgan xatdir.

Arab adibi va tarixchisi Jurjiy Zaydon bu matnni quyidagicha beradi: «Bu barcha arablarning podshosi, tojdor, Asad va Nizor qabilalari va ularning podsholarini bo'ysundirgan, hozirgi kungacha Mazqijni engib kelgan, zafar uni Shamarning shahri Najron devorlarigacha eltgan, Maad (qabilasi)ni tobe qilgan, o'qillarini qabilalarga (boshliq qilib) qo'ygan, ularni o'zi o'rniga forslar va rimliklarga (vakil qilib) jo'natgan Imruul-qays bin Amrning qabridir. Mamlakat shuhrat va qudratda hech qachon bugungi darajaga etmagan. U 223 yil 7-Kislul kuni vafot qildi»[18]. Ushbu yodgorlik nabotiy tilida yozilgan bo'lib, hozirda Frantsiyadagi Luvr muzeyida saqlanadi.

Birinchi arab yozuvini yozgan kishi Zayd ibn hamman hisoblanadi. quyida arab yozuvining paydo bo'lish tarixi chizma orqali ko'rsatilgan[19]

Qadimiy Misr yozuvi

I

I

Finikiy yozuvi (er.av.VII asr)

I

I

Musnad (ximyoriy yozuvi- er. II-III asr)

I

I

Samudiy, safoviy, laxyoniy, sobey yozuvi

I

I

Nabotiy yozuvi (er. III asri- 270-yil)

I

I

Xira, qijoziy yozuvi

I

I

Nemara (IV asr-328 yil), zayd (512- yil), xiron (568- yil)

Ma'qaliy yozuvi

I

I

Kufiy yozuvi (er. IV-VII-IX asrlari)

Eramizning VII asridan boshlab «Xatti ma'qaliy» o`rnini arab yozuvining eng qadimiysi va eng mashhuri hisoblangan «Xatti kufiy» egallaydi[20].

Kufa yozuvi - Kufa shahri nomi bilan atalgan. Geometrik ko`rinishdagi yozuv. Uning harakatlari (نقط الاعراب) va undoshlarning nuqtalari (نقط الاعجام) bo`lmaydi. Qur'onning eng qadimgi qo`lyozmalari ushbu yozuvda bitilgan. Usmon Musxafi deb nom olgan Qur'onning asl nusxalari ushbu kufa yozuvida bitilgan. Kufa yozuvi X asrga kelib ancha susaydi. Bu davrga kelib nasx va suls yozuvlari ancha rivojlandi. Kufa yozuvi asosida olti xil yozuv vujudga keldi. Bular:

- | | |
|---------------|--------|
| 1. Muhaqqaq - | محقق |
| 2. Suls - | ثلث |
| 3. Nasx - | نسخ |
| 4. Tavqi' - | توقيع |
| 5. Rayqoniy - | ريحاني |
| 6. Riqo - | رقاع |

O`zR FA Abu Rayqon Beruniy nomli Sharqshunoslik insti-tutida IX asrga monand Qur'on qo`lyozmasi saqlanib kelmoqda. U qadimiy (Kufa) yozuvida bitilgan

Shuningdek, bu instituti fondida 2246 raham ostida qo'lyozma majmuida saqlanmoqda. Unda 30 ga yaqin asar bor. Ularning 274a - 275b varaqalari orasida arab yozuvi tarixiga baqishlangan «Yozuv va qalamlar haqida» (والاقلام في الكتابة) nomli risola bor. Qo'lyozma nasta'liq usulida yozilgan bo'lib, ba'zan so'zlar sulsda bitilgan.

Bu risola al-haribiyning asari bo'lib, u Muqyiddin al-Arabiyning "في حل المشكلات" asarlariga ash-Shayx al-Makkiyning falsafiy javoblaridan iborat (127q, 197q varaqlar). Bu risola 924 yil Turkiyaning Ooderna shahrida yozilgan. Unda shunday jumlar bor: «eng avval ximyoriy degan arab yozuvi paydo bo'lgan. Bu yozuvni bir qancha vaqt Yaman xalqi va uning islomdan oldin arablashgan podsholari ishlatishgan.

So'ng bu xat Kufaga ko'chdi. Bu erda uni Murod ibn Murra degan kishi tarqatdi. Shu tariqa bu xat shu erda shakllandi va Kufaga nisbatan «kufa xati» deb yuritildi». Risolada kufiy xati to ummaviylar saltanati (661-750) davrgacha ishlatilgani haqida fikr yuritiladi. Shu tariqa bu xat o'zgarmay ishlatilib, adabiyotda «Usmon Qur'oni xati» deb mashhur bo'ldi. Shu bilan birga abbosiylar davlatining (749-1258) ikkinchi yuz yilli-gigacha iste'molda bo'ldi.

So'ngra (IX asr) abbosiylar vaziri Abu Ali Muhammad ibn Mukla kufa xatining o'zgarishiga sababchi bo'ldi. Yozish qiyin bo'lgan kufa xati hozirgi davrda ishlatiladigan arab xatiga ko'chirildi.

Arab xati o'ngdan chapga harab yoziladi. yigirma ikki harf to'rt ko'rinishli, oltitasi ikki ko'rinishga ega. Alifbo tarki-bidagi hamma harflar undosh tovushlardir. Unli tovushlar esa harakatlar orqali ifodalanadi Alifbo tarkibidagi ba'zi undosh harflar ko'rinishi jihatdan bir-biriga o'xshaydi, faqatgina nuqtalari orqali farqlanadi. Bular orasida oltita undosh harf ا، ك، ل، م، ه، و aloqida ko'rinishga ega, Ular boshqa harflarga o'xshamaydi va nuqtalari bilan farqlanmaydi[21].

Arab alifbosi bilan mukammal tanishish arab tili darslarining fonetika bo'limida o'rganiladi.

Savollar:

1. qadimiy arab davlatlaridan qaysilarini bilasizq
2. Lahmiylar davlati haqida so'zlab bering.
3. Zebo ismli ayol qaysi davlatga hukmronlik qilganq
4. Musnad va oromiy yozuvlari haqida nima bilasizq
5. Arab yozuvidagi birinchi yodgorlik hozirda qaerda saqlanadiq

Tayanch iboralar:

Ximyoriylar, Nabotiyilar, qassoniylar, Kindlar, Palmira, "AnqNimar", Xira, Xijoziy. Kufa yozuvi. Nasx, Suls, Muhammad ibn Muqla.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Belyaev E.A. Arabo`, islam i arabskiy xalifat v rannee srednevekovye. M., 1965.
2. qasanov A. qadimgi Arabiston va il kislom. Johiliya asri. -T., 2001.
3. Xanna al-Faxuri. Istoriya arabskoy literaturo`. -M., 1950. -S.26.
4. qakimjonov M. Xatti muallimi. -T., 1991. -B.4.
5. Sharbatov G.Sh. Sovremenno`y arabskiy yazo`k. -M., 1961. -S.25.
6. Xanna al-Faxuri. Istoriya arabskoy literaturo`. -M., 1950. -S.26.

Mustaqil ish mavzulari:

Imrul qays- qasida janrining asoschisi

Ma'ruza 4. Arab adabiy tilining paydo bo'lishidagi asosiy manbalar

Reja:

1. Arab adabiy tilining paydo bo'lishida qadimgi arab og`zaki ijodiyotining tutgan o`rni
2. Saroy shoirlari she'riyati
3. Qur'on-arab tilida yozilgan muqaddas manba.
4. Qur'oni karim tarjimalari

Bizga ma'lumki, Arabiston yarim orolining markaziy va shi-moliy qismida yashovchi arablar ko`chmanchi - badaviy arablardan iborat edi. Ular chorvachilik bilan shuqullanganlar. Suvning etishmasligi qabilalar o`rtasida qonli to`qnashuvga sabab bo`lar edi. Bu to`qnashuvlar natijasida ko`chmanchi arab qabilalari orolning chekka tomonlariga keta boshladilar, Fin imperiyasi, keyinchalik Vizantiya, Eron bu ko`chmanchi arab qabilalarini o`ziga xizmatga chaqirdi. Ularning maqsadi o`zining maydonini kengaytirish edi. Bu davrda illoiy qonuniyatlarni tan olmaydi-gan hokimiyat davri bo`lib o`tdi. Unga tegishli johiliya poeziyasi paydo bo`ldi, ya'ni so`z va iboralar yaratishdan iborat bo`lgan budparastlik va majusiylilik davri.

Taxminan V asr oxirlari va VII asr o`rtalarigacha Shimoliy Arabiston yarim orolida og`zaki poeziya rivojlandi. U o`zining juda boy, qayratlanarli janrlari, ya'ni o`ziga xos usullari bilan ajralib kelgan poeziya hisoblanadi. O`rta asr arab nomoyondalari o`zlarining qadimgi shoirlari ijodiyotini yuksak baqolaydilar. Ular ko`chmanchi badaviy shoirlarning asarlarini jamlab, to`plamlar chihardilar, ular-ga taqrizlar yozdilar, qadimgi arab shoirining ijodi og`zaki holda edi. Islomgacha bo`lgan she'riy asarlari keyinchalik yozma ravishda bitildi. O`sha paytda asosan yuzlab she'rlarni yodda saqllovchi deklamatorlar, ya'ni roviylar bo`lgan. Ular bir-birlariga she'riy asarlarni og`zaki etkazishgan. Faqatgina VIII asrning o`rtalarida bu asarlar yozila boshlagan.

Qadimgi arab she'riyati (poeziyasi) usullaridan biri mual-laqa (معلقة) hisoblanadi. Muallaqa asoschilari Imrul qays, Tarafa, Zuxayr, al-Xaris ibn Xilliza, Amr ibn Kulsum, Antara, Labid. Ularning asarlarini VIII asrda raviy Xammad ar-Roviy (772 yil) bir to'plam shakliga keltirdi va bu to'plam «Muallaqat» deb nomlandi. Islomgacha bo'lgan arab she'riyatida qasida 50, 100 baytdan iborat to'liq bir poema hisoblangan, qit'a 7-10tacha she'rdan iborat. qit'a aloqida bo'lishi yoki qasidaning ichida bo'lishi mumkin. Arab qasidasi odatda saqroda piyoda yoki tuyada ketayot-gan shoir haqida bo'lib, u o'zining hamroqiga bir paytlarda to'xtab, dam olib o'tgan joyi va o'tkazgan kunlarini hamda badaviy arab qabilalari yashagan maskanlarni eslash bilan boshlanadi. Shundan so'ng shoir o'zining tuyasi yoki otini maq-taydi, so'ng tabiatni, toshqinlarni va boshqa qodisalarni eslab yozadi. Shundan so'ng asosiy qismga o'tadi. Dushmanning ustidan kuladi, jangga chaqiradi, o'zining, o'z qabilasining jasoratini, qabila boshliqining donoligini va qo'rqqanligini maqtaydi. Bu davrda she'riy janr qasida tarkibidan chiqib ketmagan edi. Faqatgina hijo - هجاء (satira, hajviya) va risa - رثاء (marqumni eslash) mustaqil, tugallangan she'riy janr bo'lib qoldi.

Qasida quyidagi tarkiblarni o'z ichiga oladi:

1. Faxr- فخر o'zini, qabilasini maqtash bo'lib, qasidaning asosiy qismi hisoblanadi.
2. Madq - مدح qismida shoir qabila boshliqini, hukmdorlarni va mayda arab podsholarni maqtaydi.
3. Vashf - وصف Arabistonning tabiatini, ya'ni saqrolarini, qizdiruvchi quyoshni, yomqirni, o'simlik va qayvonlar dunyosini maqtaydi.
4. Nasib - نسيب da esa ishqiy kechinmalarni kuylaydi,
5. Qikma - حكمة asosan aloqida baytdan yoki kichkina she'rdan iborat bo'lgan.

U axloqli, odobli kishilarning bir-biriga bo'lgan munosabatlarini kuylagan.

Islomgacha bo'lgan davrda she'riyat o'zining qoyaviy va pis-simistik mazmuni jihatdan aloqida o'rin egallagan. Ularning mazmuni qabilalarning hayoti, turmush tarzi, ularning o'zaro olib borgan janglari haqida bo'lgan. Islomgacha bo'lgan davrda arab she'riyatida ikki xil yo'nalish bor edi va bu bir asr mobaynida saqlanib keldi.

1. Badaviy (ko'chmanchi) arab she'riyati;
2. Saroy shoirlari she'riyati.

Badaviy arab shoirlari - asosan qabila boshliqlari bilan yaqin munosabatda bo'lganlar va ular olib borgan janglarda birga kurashganlar. Bu shoirlar ularning maqsad va manfaatlarini ko'zlaganlar va bu qaqda kuylaganlar. Johiliya davridagi shoirlardan biri ash-Shanfaradir (VI asr bosh. vaf. et.). U to'g'risida ma'lumotlar juda kam. Shoir-ning she'rlaridan shuni aniqlash mumkinki, u qandaydir bir sabab bilan o'z qabilasini tashlab, saqroda yovvoyi qayvonlar orasida yashagan. O'z qabilasini yomon ko'rgan va badaviy qabi-lalarga bir necha bor ularni qo'rqqitish uchun qujum qilgan. Uning asarlaridan biri - mashhur lomiya - «Saqro qo'shiqlari» deb atalgan[23]. Bu asarda saqrodagi o'zining yakka hayoti, ochlik, tashnalik, sovg'atlash

kechinmalarini, jasoratli hayot tarzini kuylaydi. U qabila tartibini buzganligi uchun o'zini ayblaydi. Uning she'riyatida arab qasidasiga xos uslublar kam bo'lsa-da, bor edi. Masalan: bayt, tavil vaznini qo'llash, yagona qofiyaga amal qilish.

Taabbata Sharran (530 yil vaf.et.) - bu shoir ham o'z qabi-lasidan qaydalgan, saqroda kun ko'rgan va o'z qabilasiga yordam bergan, dushman qabilalariga qujumni yakka holda olib borgan. Shuning uchun uning she'riyatini «badaviy jasoratining madqiyasi» deb ataydilar. qasidaning hamma elementlari bo'lmasa-da, badaviylar hayotini yaqqol tasvirlagani uchun uning ijo-diyoti islomgacha poeziyaning namunasi hisoblanadi. Al-Muxalxil - (VI asr. ikkin. yar. vaf. et.), taqlib qabila-sidan. Uni otliq - saqro ritsari deb atashgan Uning akasi Kuleyb o'sha paytlarda mashhur bo'lgan. U ikki qabilaning, ya'ni bakr va taqlibning harbiy qo'mondoni edi. O'zining mansabidan foydalanib, Bakr qabilasidan Basusa ismli ayolning tuyasini uning tuyalari bilan yonma-yon suv ichayotgani uchun o'ldiradi. Shu-ning natijasida ikki qabila o'rtasida jang bo'ladi va u qirq yil davom etadi. Bu jang tarixda «Basusa tuyasi tufayli chiqqan jang» deb iz qoldirdi[24]. Bu jang natijasida uchinchi bir tomon - qudratli Xira hukmronligining aralashuvi tufayli yagona bir davlat vujudga keldi, u markaziy Arabistonda o'z musta-qilligini tiklab oldi.

Al-Muxalxil akasi Kulaybning o'limiga baqishlab qasida yozdi. O'ttiz qatordan iborat bo'lgan bu she'r juda sodda, ammo ta'sirchan tilda yozilgan edi.

Imrul-qays (500 yilda tuqilgan) hukmron zodagon oila-sidan chiqqan. Uning otasi asad qabilasining boshliqi edi. Kulayb esa uning toqasi edi. Bakr va taqlib jangida uning qa-bilasi ham ishtirok etadi va Xira hukmdori Munzir III to-monidan engiladi. Imrul qays qassoniylar amiri al-Xarris orqali Vizantiya yordamida Eron ittifoqchilari bo'lmish Xira qirolligi bilan bo'lgan urushda qatnashadi. Shoir Vizantiyaga kelayotganda vafot etadi. Arab she'riyatida Imrul qaysni «qasida yaratuvchi» deb ataydilar. Uning qasidalarida qasidaga xos hamma badiiy ji-qatlar va uslublar qo'llangan. Uning «To'xtanglar yiqalaymiz» (قفا نبيكي) deb atalmish qasidasi arab poeziyasida juda katta o'rin tutadi. qasida tarkibida klassik elementlardan tortib, arab she'riyatidagi uslublarning hammasini uchratamiz.

Shoirlardan Tarafa, Amr ibn Kulsum, Zuxayr, Al-Xoris ibn Xilliza, Antara ibn Shaddat, Labid - (560-661 y). hamma-larining muallaqalari bor. Bulardan Muhammad Labid xa-lifalar orasida yashagan shoir edi. U islomni qabul qilgan va she'riyatdan voz kechgan. Saroy shoirlar she'riyati. VII asrnig ikkinchi yarmiga kelib o'z qabilasidan ajralib saqroda yakka o'zi yashab ijod etgan, Badaviy arab shoirlari bilan bir qatorda boshqa guruq she'-riyat arboblari bor edi. Ularning she'riyati saroy aqli hayotini kuylar edi. Ularning ijodiyoti ko'proq shahar madaniyati bilan boqliq bo'lgan, Ular arab poeziyasiga yangi an'analarni olib kirdilar. qasida elementlariga yangi xususiyatlar qo'shib olib borildi. Masalan, saroy maddoqi (panogerist - birovni xaddan ortiq maqtovchi) - badaviy shoirdan farqlidir. U qasidasini bir niyatda o'ylab gapiradigan saroy ayonlari foydasiga kuylaydi-gan, shoq tomonidan qimoyalangan shoir hisoblanadi. U qasida tarkibidagi madq qismini avjiy nuqtaga olib chiqib kuylaydi. Eng yirik nomoyondalaridan biri Nabika az-Zubyonni (535-604) - birinchi

maddoq hisoblanadi, U Naj viloyatining shimoliy sharqiy tomonida yashovchi Zubyon qabilasining farzandi. Uning ijodi asosan Xira hukmdori Amr ibn qind (569 vafot etgan.) va undan keyingi Nu'mon ibn al-Munzir zamonasiga to'g'ri keldi. VI asr oxiriga kelib shimoliy Arabistonda siyosiy aq-vol mo'tadil qolatda edi. qabilalar o'rtasidagi juda ko'p to'qnashuvlar shoirlarga kuchli qimoyachilar kerakligini ko'rsatdi. An-Nabiq a o'z qabilasining manfaati uchun 587 yil An-Nu'monni tashlab qassoniylar saroyiga ketdi. Keyinroq Xira hukmronligiga qaytib keldi. Xira qirollariga u o'zining bir qancha madqiyalarini baqishlagan. U siyosiy lirika asoschisi hisoblanadi. Chunki u o'zning qasidalarida o'sha paytdagi siyo-siy aqvolni kuylar, qabila hukmronlarining ishlarini maqtab, o'zaro kelishmovchiliklarni qo'yib, o'sha qirollarning panoqiga o'tishni tavsiya qilib da'vat qilardi. U yana vasf usulining juda katta ustoz edi. Uning qasidalaridagi eng kerakli ele-menti vasf hisoblanar edi. U xalq masallarini ham o'z qasi-dasiga kirgazdi. Madq etishda doimo ajoyib ifodalar topib, oddiy tildan foydalandi, ishqiy qismini esa juda nozik ifo-dalar bilan tasvirladi, jasoratni jarangdor so'zlar bilan ifodaladi.

Yana maddoqlar ichida al-A'sha (629 yili vafot etgan) va hajviyachi al-Xuteyba (679 yil vafot etgan) ni es-laymiz. Al-A'sha Nabiq a poeziyasini davom ettirdi. Islomgacha bo'lgan davr she'riyati arab adabiyotida juda katta ahamiyatga ega, bunda prozaning o'rni ham katta - maqollar, qikmatli so'zlar (aforizm) turli xil yo'nalishlarda yozilgan. Ularning ko'pchiligi qadimgi arab donishmandi Luqmon Payg'ambar tomonidan yaratilgan. Bu epik asarlar keyinroq «Arab kunla-ri» (ايام العرب) deb atalgan to'plamga Abu Ubayd (728-825) tomonidan kiritilgan. Qadimgi arab she'riyati va prozasi bir necha asrlar davomida oqizdan-oqizga o'tib keldi va keyinchalik yozib olindi. O'rta asrlarning oxirida xalq romanlari uning asosida yaratildi. Arab adabiy tilining vujudga kelishida qadimgi arab og'zaki ijodining o'rni cheksizdir. Og'zaki ijodiyot shunday ulkan cho'qqiga ko'tarilgan ediki, uning ta'sirisiz arab tilining rivojini belgilab bo'lmas edi.

Qur'on - arab tilida yaratilgan muqaddas kitob

"إنا أنزلناه قرءانا عربيا لعلمكم تعقلون" (سورة يوسف 2)

VII asrga kelib, arab qa-bilalari juda katta iqtisodiy va ijtimoiy inqirozga uchradilar. Yarim orolda yashayotgan aqolini badaviy xo'jaligi qoniqtirmay qoldi. Suv tanqisligi er qay-dash, erdan foydalanishga zarar etkazdi. Suqorish shaxobchalari kuchli qabilalar qo'liga o'tdi. Badaviylar ortiq qimoyalanmay qoldi, kelishmovchiliklar, harshiliklar kelib chiqa boshladi, Natijada deqqonchilikdan tijoratga o'tish boshlandi.

Asosan, Makka shahrida tijorat avj oldi. Savdo karvonlari Makkadan Yamanga, Suriya, Iroq va Misrga harab yo'l oldi. Bu savdo karvonlariga quraysh qabilasining boshliqlari boshchilik qilar edilar. quraysh qabilasi juda boy qabila hisoblangan. Uning eri, maqsulotlari, qo'ylari va mollari ko'p edi. Bu qabilaning iqtisodiy

hukmronligi Makkadan tahhari erlarga yoyilgan edi. Makkada quraysh qabilasining muqaddas maskani Ka'ba bor edi. U erga Arabistonning shimoliy va harbiy chekkalari-dagi badaviy arablar o'zlarining qabila butlarini qo'ygan edi-lar. Shunday qilib, Makka shahri iqtisodiy markazgina bo'lib qolmay, balki diniy markaz ham hisoblangan. Markaziy Ara-bistonda uruq-qabila tuzumining emirilishi, sinfiy aloqalarning vujudga kelishi arafasida qabilalarni birlashtira-digan mafkura vujudga keldi. Bu esa yangi din - Islom dini edi.

Islom dinini avval badaviylar, so'ng shaharliklar, arab yurishlaridan so'ng esa Osiyo, Afrika, Ispaniyadan tortib qin-distongacha bo'lgan davlatlardagi xalqlar qabul qildilar. Is-lom dinining tarqibotchisi makkalik Muhammad Mustafu (s.a.v) edilar. Ular quraysh qabilasidagi qoshimiy avlodiga mansub bo'lib, otalari Abdulloq mayda kichik tijoratchi bo'lib, erta o'lib ketgan, onalari Omina Muhammad (s.a.v.) besh yoshga kirganlarida vafot etganlar. Olti yoshlarida toqalari Abu To-lib qo'lida tarbiyalandilar, mol boqish bilan shuqullandilar, Muhammad (s.a.v.) o'sib voyaga etganlarida savdo karvonlari bilan yo'lga chiqadilar va shu ish bilan shuquullanadilar. Boy tijoratchi ayol Xadicha onamiz qo'llarida ishlaydilar. Ular bir necha yil tijorat bilan shuqullanganlaridan so'ng yoshlari 25 ga etganda shu ayolga uylanadilar. qirq yoshga etganlarida islom dinining asoschisi Alloq bilan ummatlar o'rtasida elchi - rasul – رسول الله sifatida tarixda qoladilar.

Makkada Muhammad(s.a.v.)ga qarshilik ko'rsatuvchilar juda ko'p bo'lib, islomni qabul qilganlarni o'ldirar edilar. Chunki, o'zlarining amakilar Abu Jaql o'z ayoli bilan Ka'badagi butlarga siqinar edilar. Muhammad (s.a.v.) esa islom dini bilan uning hukmronligiga harshi chiqqan edilar. Muhammad (s.a.v.) o'z saqobalari - muxojirlar bilan Makkani tark etib, 622 yilda Madina shahriga yo'l oldilar. 622 yildan musulmonlarning qijriy yili boshlangan. Madinada Islomni quvonch bilan kutib oldilar. Avs va Xazraj qabilasi ularni qo'lladi.

Madinada ansorlar (yordamchilar) qo'llariga qurol olib, Arabiston yarim orolida Islom g'alabasi uchun kurashdilar. Keyinchalik Makka aqolisi ham taslim bo'ldi. Ka'ba musulmonlar ziyoratgoqiga aylandi. Butlar sindirildi va yagona Alloq insonlarning panoqi ekanligi, yaratguvchisi, rizq berguvchisi ekanligi va Muhammad (s.a.v.) esa uning rasuli ekanligi butun Arabiston yarim orolida tan olindi. 630 yilga kelib, butun arablar Muhammad (s.a.v) hukmron-ligini tan oldilar (Islomgacha Arabiston yarim orolida nasroniy va yaqudiy dinlari mavjud edi).

Qur'onning yozilishi faqatgina Payg'ambar Muhammadning (s.a.v.) vafotlaridan so'ng boshlandi. Chunki ular hayot ekanlar, Alloq tomonidan vaqiy albatta kelishi mumkin, deb o'ylagan-lar. VII asrning o'rtalariga kelib, Abu Bakr (632-634) va Umar (634-644) xalifaligi paytida roviylarni to'plab, Qur'onning yozilishi Payg'ambar saqobalaridan biri bo'lmish Ziyd ibn Sobitga topshirildi. Xalifa Usmon (644-655) Qur'onning to'la matnini tuzishni buyurdi.

Qur'onning oltita nusxasi - Makkiy, Shomiy, Basriy, Ku-fiy, Madina aqli uchun umumiy bo'lgan Madaniy va xalifaning o'zlari uchun xos bo'lgan madaniy

Musqaflardir (مصحف). Oxirgisi hazrati Usmon (r.a.) o`zlari uchun olib qolganlar madaniy Mushaflardir[25].

Qur'on «o`qish» degan ma'noni bildiradi. Qur'on 114 sura-dan iborat. Ochiq-oydin, mantiqan tugallangan fikrni Muham-mad (s.a.v) sura deb ataganlar. har bir sura miqdori har xil bo`lgan oyatlardan iborat.

Eng uzun sura 2- suradir, Bu 286 oyatdan iborat «Bahara surasi» (سورة البقرة) dir.

Eng qisqa sura 103, 108, 110 suralar uch oyatdan iborat. Bu-lar: «An-Nasr surasi» سورة النصر, «Al-Kavsar surasi » سورة الكوثر, «Al-Asr surasi » سورة العصر.

Qur'oni Karimning nomlari

1. القرآن -«O`qish kitobi»;
2. الفرقان -«Haq bilan nohaqlikni aniqlab beruvchi»;
3. البرهان - «Hujjat»;
4. الذكر - «Yod etish»;
5. الكتاب - «Kitob»;
6. الحق - «Haqiqat»;
7. النور - «Nur»;
8. الوحي - «Allohning Payg`ambarlarga bevosita va bilvosita o`z ko`rsatmalarini yuborish vahiydir»;
9. التنزيل -«Nozil qilingan narsa»;
10. الهدى - «Hidoyat»;
11. المصحف - «Sahifalangan kitob»
12. كلام الله - «Allohning kalomi»[26].

Qur'on suralari ikki turga bo`linadi: Makka suralari va Madina suralari.

Makka suralari 622 yilgacha, Madina surala-ri esa 622 yildan keyin nozil bo`lgan suralardir. Suralarning nozil bo`lishiga har xil tarixiy sharoitlar sabab bo`lgan, Chun-ki Alloq har narsani ko`rguvchi va bilguvchidir, shunday sha-roitlarni ko`ra turib Muhammadga (s.a.v) yo`l yo`riq ko`rsatish, uning Payg`ambar ekanini isbotlash faqatgina Alloqga xosdir. Qur'onni o`qib o`rganar ekanmiz, yaratganimizning yanada buyuk-ligiga, qudratli ekanligiga, o`zining to`qson to`qqiz ismiga loyiq ekanligiga yana bir bor iymon keltiramiz.

Qur'on arab adabiyotining barcha davrlariga o`zining ulkan ta'sirini ko`rsatdi. Faqatgina musulmon dinidagi bitiklarda emas, balki boshqa mazmundagi she'rlarda va asarlarda adiblar Qur'ondan iqtiboslar keltirdilar. Qur'onning yaratilishi yagona arab tili yaratishdagi qonun qoidalarini mustaqkamlashda juda ko`p asrlar mobaynida katta o`rin egalladi.

Muhammad Payg`ambarimizning (s.a.v) hayotlari va qilgan ishlari to`g`risida yozilgan asar hadis deb ataladi.VII asrning o`rtalariga kelib islom dini qabul qilinishi bilan va Qur'onning yozilishi tufayli she'riyat va nasrga yangi mavzu kirib keldi. Bu diniy madqiyalardir. Ammo avvalgi qasidalarining ko`p janrli kompozitsiyasi saqlanib qoldi. Bu qasidalarda maddoqlar islom dinini Muhammadni (s.a.v) maqtadilar, Islom

dushmanlarini qoraladilar. Maddoqlardan eng mashhuri Ka'ab ibn Zuxayr (662 yil vaf. et.). U islomgacha bo'lgan shoir Zuxayrning o'qli edi. U avval islom diniga harshi asarlar yozdi. Lekin islom g'alabasi bilan u ham dinni qabul qildi va «al-Burda» deb nomlangan qasidasini yozdi. Payg'ambar (s.a.v.) bu qasida uchun unga o'z burdalari, ya'ni ustki kiyimlarini sovqa qildilar.

Yana islom diniga madqlar baqishlaganlardan biri shoir qasan ibn Sobit (563-674)dir, u avval qassoniylar saroyida saroy maddoqi bo'lib ishlaydi. Ayni shu paytda u qassoniylar dushmani Xira amirini ham kuylaydi. Islomni qabul qilgach, islom maddoqi bo'lib Muhammadni (c.a.v.) va ularning dinini maqtaydi.

Ibrohim ummati qaysi millatga, qaysi mazqabga mansub-ligidan qat'iy nazar, kelajak oldida, Alloq oldida barcha odamlar bab-barobardir. Tiriklikning eng oliy taffakkuriga va maqsadiga bo'lgan e'tiqodni inson o'z dinida topadi, shu bi-lan axloq va madaniy ijodning tamal toshini qo'ya oladi. «har qanday dinning mohiyati shundan iboratki, u hayotga o'lim ham barbod eta olmaydigan tafakkur baqishlaydi» (Lev Tolstoy).

Islom dini odamzodga jamiki mavjudotga nisbatan buyuk muqabbat bilan harsh joizligini qayta-qayta eslatadi. Islom deb atalmish juda qadimgi insonparvar ta'limot aynan shunday yo'lni shar'iy, ya'ni qonuniy deb buyurgan. Muqqaddas kitob musulmon qavmidagi barcha xalqlarning hayot tarzini bir ipga tizib, tartibga solib qo'yadi. Uni faqat diniy yo'nalish bilan va bu yo'lga solish bilangina chegaralanib qolmasdan, balki ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy, axloqiy va oilaviy-maishiy jihatdan xam barkamol darajaga ko'taradi[27].

Jahon madaniyatining eng nodir yodgorligi hisoblanmish Qur'oni Karim bilan tanishish Rossiyada XVIII asrda podsho Pyotr I tashabbusi bilan boshlanib, o'sha davrning madaniyatli arboblardan biri Posnikov tomonidan tayyorlangan ruscha tarjimasi 1716 yilda nashr etilgan. 1787 yil Peterburgda (Rossiyada) ilk bor Qur'onning arabcha matni nashr etildi. 1798 yilga kelib Ekaterina II topshiriqiga binoan besh marta nashrdan chiharildi. Keyinchalik akademik I.Yu.Krachkovskiy Qur'onni rus tiliga tarjima qilgan. 1935 yil qoqira jurnallarining birida Misr yozuvchisi Maqmur Taymurning Krachkovskiyga baqishlangan maqolasi chop etildi: «Men unga o'zimning samimiy salomimni yo'llayman, unga butun arab dunyosining do'stlik va minnatdorchilik tuyqusini izqor etish bilan baxtiyorman»[28]. Ilqor fikrli kishilar Qur'onning mohiyatini o'rganish uchun bir necha asrlar muqaddam kirishganlar.

Qur'oni Karim qadimda nasroniy dinidagi xalqlar diqqatini ham o'ziga jalb qilgan. Chunonchi, u 1698 yili lotin tiliga; 1770-1828 yillar orasida sakkiz marta frantsuz tiliga; 1734-1826 yillarda o'n marta ingliz tiliga; 1946 yili nemis tiliga; 1716, 1790, 1792, 1864, 1907 va 1963 yillarda olti marta rus tiliga tarjima qilingan. Shunisi diqqatga sazovor-ki, Qur'oni Karim buyuk rus shoiri A.S. Pushkinning ham e'tiborini tortgan. Shoir «Qur'ondan iqtibos» degan she'riy asar yaratgan. Bunda u sura va oyatlarni mutolaa qilib, uning mazmunini she'riy yo'lda ifoda etishni, o'ziga asosiy maqsad qilib qo'ygan[29].

1990-1991 yillar o'zbek xalqi hayotida moddiy jihatdan ancha qiyin kechgan bo'lsa-da, ma'naviyat jihatidan juda barkamol bo'ldi. Qur'oni karim imom Oloviddin Mansur tomonidan zamonaviy o'zbek tiliga o'girildi. Yurtimizda bebaqo adabiy merosimizni o'rganish va undan xalqimizni baxramand qilishdek xayrli ishlarga e'tibor berilmoqda. Qur'oni Karim ma'nolarini o'zbek tiliga tarjima qilish an'anasining davom etayotgani so'zimiz dalilidir. 2001 yilda islomshunos olim Abdulaziz Mansur tomonidan amalga oshirilgan Qur'oni Karim tarjimasi o'ziga xos xususiyatlari bilan oldingi tarjimalardan farq qiladi. Qur'oni Karimni o'qib o'rganish va unga amal qilish har birimizning qoliq Alloq oldidagi insoniy burchimizdir.

T. Neldek nomli mashhur harf arabshunos olimi Qur'on-ning xronologik tartibini topishga uringan. Unga muvofiq «Qur'on» suralari to'rt davrga bo'linib tasnif qilinadi. Shundan uchta davr Makkaga, bittasi Madinaga to'g'ri keladi.

I - Eksontologiya davri, ya'ni islomgacha da'vat davri. Bunda ilohiyat qoyasi, qaqqu subqonaqu taolodan kelgan vaqiy kabilar haqida gap ketadi. qiyomat-qoyim, o'liklarning tirilishi, nari-gi dunyo so'roqlari haqidagi fikrlar kiritiladi. Do'xax, arosat azoblari - do'xax bilan jannat o'rtasidagi joy, u erga tushgan odamlar jannatni ko'rib, qani endi men ham bu lazzatlardan foydalansam deb shunday joylarga kira olmagani to'g'risida afsus-nadomatlarga borsa, do'xaxni ko'rib, ya'ni azoblanganlar-ni ko'rib, bunday joylarga tushmaganligiga suyunish qolatlari jo'shib so'zlanadi. II davr - Raqmon davriga ancha sokin suralar, tangri inoyati haqidagi undovlar kiradi.

Bu davrda savol - javoblar, do'xax azobidan qo'rqish ikkinchi o'ringa o'tib, uning o'rniga tangrining saqovati va kechiruvchanligi haqida gap ketadi. III davr - Payg'ambarlik davri - bunda Payg'ambarlik da'-vosi, uning so'nggi asosiy Payg'ambar, elchi ekanligi tushuntiri-ladi. Odamlarga umumiy murojaat haqidagi gaplar uqtiriladi, qabul qilmaganlari ma'lum darajada qo'rqitiladi. IV davr - Madina davri. Bu suralar qijratdan keyingi, ya'ni 622-623 yildan keyin nozil bo'lgan suralar hisoblanadi. Bu suralar qa-qida I.Yu. Krachkovskiy shunday deydi: «Siyosiy davlat boshli-qi va harbiy arbob Muhammadning ish kundaligi»dir. Ularda Muhammad (s.a.v.) katta davlatning boshliqi sifatida namoyon bo'ladilar. Ular juda ko'p yuridik ko'rsatmalar, jumladan, me'-ros, haj qilish, namoz o'qish tartiblari, ro'za tartiblari haqida va boshqa ko'rsatmalar beradilar. Bir tomondan musulmon-lar, ikkinchi tomondan yaqudiylar va nasroniylar o'rtasiga aniq chegara qo'yiladi. Munofiqlar toifasiga ishora qilinadi. Su-ralar ko'proq nasriy shakl olgan.

Savollar:

1. Johiliya poeziyasi haqida nima bilasizq
2. qasida janri haqida gapirib bering
3. Badaviy arab she'riyati vakillaridan kimlarni bilasizq
4. Qur'oni karim qachon nozil bo'lganq
5. Qur'on tarjimalari haqida nimalarni bilasizq

Tayanch iboralar:

Badaviy arab she'riyati, qasida, vaf, Saroy she'riyati, Qur'oni karim. Neldek, sura, oyat. Madina va Makka davrlari. Ruscha tarjimalar. hadis ilmi. Arab adabiy tili.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Nabiqaz-Zubayroni hayoti va ijodi
2. Qur'on ma'nolarining tarjimasi

Adabiyotlar ro'yxati

1. Filshtinskiy I.M. Arabskaya klassicheskaya literatura. -M., 1965.
2. Shayx Ismoil Maxdum. Toshkentdagi Usmon Musqafining tarixi. -T., 1995.
3. Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim. -T., 2001.
4. Ibrohimov N. Muqaddas kitoblar. G'G' Sharq mash'ali. 1992, №2.
5. Sharq yulduzi. -T., 1991. №1.

Ma'ruza 5. Arab adabiy tilining rivojlanish davri

Reja:

1. **Arab adabiy tilining rivojlanish bosqichlari**
2. **Hozirgi zamon arab adabiy tilining muammosi**

«Arab» degan nom ma'lum bir xalqning o'zini atash uchun yaratilgan so'z emas. Bu nom ularning avlodlari saqrolarda ko'chmanchi bo'lib yurganliklaridan kelib chiqqan. «Ko'chmanchi» degan nom keyinchalik bir xalqning nomi bo'lib qolgan.

«عرب» so'zining lug'aviy ma'nosi: 1) arab; 2) ko'chmanchi.

Arab tili somiy tillar guruhi ichida eng yoshi hisoblanadi. Biz arab tili rivojlanishining boshlanqich davri to'g'risida aniqroq bir narsa ayta olmaymiz. Faqat shuni eslatib o'tamiz-ki, avval ikki til mavjud bo'lgan va qolgan barcha arab lahjalari (dialektlari) shu tillar asosida kelib chiqqan.

Bu tillar:

1. *Janubiy arablar - ximyoriylar, ya'ni Yamanda yashaydigan kaxtan qabilasining tili. Ular asosan janubiy arab tili-da, ya'ni somiy tarmogining janubiy chet guruqchasiga ki-ruvchi tilda gaplashgan.*
2. *Shimoliy arablar - mudoriylar, ya'ni qijozda yashaydigan ad-non qabilasining tili. Ular somiy tarmoqining janubiy mar-kaziy guruqchasiga kiruvchi klassik arab tilida gaplashishgan.*

Hijoz, mudoriy tili juda ko'p boshqa tillarga qo'shilib, chatishgan holda bizgacha etib kelgan. Birinchi bo'lib bu tilda islomgacha bo'lgan arab adabiyoti va Qur'oni Karim yozildi. Ara-biston yarim orolining shimolida yashovchi adnon qabilasi bi-lan janubda yashovchi kaxtan qabilasi o'rtasida savdo-sotiq ish-lari bo'lib turar edi. Bunday birgalashib ish olib borish na-tijasida bu ikki til vakillari o'rtasida bir-birini

tushunish jarayoni bo`lib o`tdi va rivojlandi. Besh asr mobaynida mudo-riy tili hukmronlikni qo`lga kiritdi.

Mudoriy tili juda boy tilga aylandi. Aynan mana shu mudoriy tili asosida arab adabiy tili paydo bo`ldi. Arab adabiy tilining paydo bo`lishidagi asosiy shart-sharoitlar quyidagilardir:

1. Ximyoriylar va mudoriylar tilining qo`shilib ketishi. qabila Lahjalarining bir kalimadan, bir o`zakdan chiqqan-ligini ko`rish mumkin edi. Ular turli Lahjalarda gaplashsalar ham, bir-birlarini tushunar edilar. Masalan, fonetik o`zgarishlari:

a) o`zaklarda tovushning boshqa, ya'ni o`zakda bo`lmagan tovush bilan almashinuvi (substitutsiya).

الخباع-الخباء -o`tov, Palatka

b) o`zakda bor bo`lgan undoshlarning o`rnini almashtirish (metoteza).

صاعقة-صاقعة - gumburlash

Qabilaviy dialektlar bilan bir qatorda noaniqliklar va buzilishlardan qoli bo`lgan arab adabiy tili yaratildi. Bu til ilmi odamlarning tili edi. U vaqtda shoir va xattoblar (no-tiqlar) ilmi kishilar edilar. Bu tilda barcha arab Lahjala-ridagi eng yaxshi atamalar, so`zlar olib qolinib, qo`pollari tash-lab yuborildi yoki yaxshilari bilan almashtirildi. Bu tilning keyingi rivojlanishida Qur'onning ahamiyati katta bo`ldi.

2. Bozorlar. Arabiston yarim orolining juda ko`p taraflarida katta-katta bozorlar bor edi. Unda kishilar ma'lum vaqtda o`zlarining tijorat va oilaviy ishlari bo`yicha to`planar edilar. Eng mashhur bozorlardan Ukaz, Majanka, Zul - Ma-jaz Makka shahri yaqinida joylashgan edi. Ukaz bozori eng yirik bozor bo`lib, zul - qa'da oyining (musulmon taqvimi bo`yicha o`n birinchi oy ذو القعدة) 1-20 kunlari bu yerda mashhur arab kishilari to`planishar edi. Bu erda hamma tushunadigan yagona arab tilida so`zlashar edilar. Shoir va xattoblar hamma tushunadigan tilda yuksak maqorat bilan gapirar edilarki, bu til hech kimda taajjublanish qissini uyqotmas edi. Ukaz bozori quraysh qabilasi maydonida joylashgan edi va u qal qiluvchi o`rinni tutgan, desak xato qilmaymiz.

3. Makka shahri. Arabiston yarim orolining turli tomon-laridan keladigan karvonlarning to`xtash joyi bo`lgan.

4. Baytul-haram بيت الحرم ya'ni Ka'ba «كعبة». Bu masjid musulmonlarning haj qiladigan muqaddas joyi hisoblangan va hozirda ham shunday. Turli tomonlardan musulmonlar islomning beshinchi ruknini, ya'ni haj amallarini ado etish uchun bu erga to`planishardi. Tabiiyki, quraysh qabilasi mintaqasiga kelgan arablar ularning Lahjalarida gapirishga va ibodatni ham shu tilda olib borishga harakat qilardilar. Ibodat davomida eshitgan diniy ko`rsatmalar-ni Arabiston yarim orolining boshqa tomonlariga aynan mana shu til asosida tarqatardilar.

Yirik arabshunos olim K.Brokkelman shunday deydi: «Arab poeziyasining tili o`zining tuganmas grammatik formalari bi-lan ajralib turadi va jumalarning

ifodalanishi, fikrlarning aniqligi jihatidan somiy tillari ichida rivojlangani hisoblanadi. Arab tili leksikasi juda katta soʻz boyligiga ega[22].

Ma'lumki, arab tili tarixida uchta katta davr ajratib talqin qilinadi.

1. Qadimgi arab tili.
2. Klassik arab tili.
3. Zamonaviy arab tili.

Qadimiy arab tili. U eramizdan av. II-asrdan to eramizning IV asrgacha boʻlgan davrni oʻz ichiga oladi, Unga qadimgi Vavilon va Ashshuriya tillari kiradi.

Klassik arab tili. Eramizning V asrdan to XIX asrigacha hukmron til boʻlgan.

Zamonaviy arab tili. U er. XIX asridan to shu kungacha boʻlgan tilni ifoda etadi. Qadimgi arab tilidagi yozma yodgorliklar laxyon, samud, safaviy yozuvlarida bitilgan boʻlib, Arabiston yarim oroli mintaqasida va Suriyaning janubiy qismidan topilgan. Ular eramizning I va IV asrlariga taalluqlidir.

Klassik arab tilining ilk davri ogʻzaki holdagi johiliya poeziyasiga borib taqaladi. U eramizning VIII asr va IX asrlarida arab filologlari tomonidan tadqiq qilindi. Qurʼon klassik arab tilining eng yorqin namunasi sanaladi.

Uning oxirgi nusxasi VIII asrning ikkinchi yarmida nashr qilindi. Klassik arab tilining keyingi davrida, ya'ni X asrdan to XVI asrgacha adabiy, ilmiy, tarixiy, diniy mazmundagi juda katta asarlar yozildi. XIX asrning birinchi oʻn yilligigacha arab mamlakatlari Usmoniy turklari qoʻl ostida edi. Bu payt til va adabiyot soqa-sida yangiliklar boʻlmadi. Zamonaviy arab tili esa klassik arab tilining keyingi rivojlanishi maqsuli hisoblanadi.

Zamonaviy arab adabiy tilining muammolari hozirgi kunda er yuzida uch mingdan ziyod tillar mavjud boʻlib, ularning eng keng tarqalganlari va yiriklari atigi oʻn beshtadir. Shu tillar ichida arab tili ham oʻziga xos mavqega ega.

Arab tili ham boshqa tillar kabi oʻzining uzoq tarixiga egadir. Arab tili yer yuzidagi tillarning xom-som tillar oilasiga mansubdir. Ikkimining yildan beri rivojlanib kelayotgan bu til hozirda ham rivojlanishda davom etmoqda. Arab tili yer yuzidagi yigirma ikkita davlatning rasmiy davlat tili hisoblanadi. Geograf olimlarning fikricha, arab tilida 250 mln.dan ortiq kishi gaplashar ekan. (1990 yil ma'lumotiga koʻra).

Undan tashhari, bu til butun er yuzidagi musulmonlar uchun muqaddas va aziz boʻlgan «Qurʼoni Karim» va «Hadisi Sharif» yozilgan tildir. Arab tilini biz jahon tili deb atasak ham xato qilmaymiz. Chunki jahondagi oʻn besh yirik tilning bittasi arab tilidir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti kengashlarida ish yuritish uchun qoʻllaniladigan etti tilning bittasi arab tilidir. Arab tili haqida BMTning sobiq raqbari Butros Gʻoliy shunday degan:

«Arab tili shunday bir tilki, biz bu tilsiz sharq madaniya-tining oʻtmishini va sharq xalqlarining urf-odatlarini hech qachon va hech qaysi til vositasida oʻrgana olmaymiz».

«1970-80 yillarda arab mamlakatlarida «arablashtirish» harakati avj oldi», - deb yozadi as-Sayyodi[37]. Bu arab davlatlarida arab tilini qaytadan koʻrib chiqish va arab filolog olimlarini qiynab kelayotgan savollarga javob qaytarish harakatidir. «Bu

harakatning asosiy qoyasi bir millatga mansub bo'lgan tarixi, tili, madaniyati, qiziqishi qomoxang bo'lgan barcha arablarning birlashishidan iborat shiorni o'z oldiga qo'ygan arab millatchiligi hisoblanadi»[38].

Arablashtirish maqsadi arab adabiy tilida bunyod etilgan arab madaniyatini rivojlantirgan holda barcha arab mamlakatlaridagi arablarni o'zaro yaqinlash-tirib, bir millat qoliga keltirishdan iborat. Bu qolni, ayniqsa, Misrda, Jazoirda, Tunisda, Yamanda, Marokashda yaq-qol ko'rish mumkin. Shu yillarda chop etilgan gazeta va jur-nallardagi maqola va feletonlar fikrimizga dalil bo'la oladi. 1980-85 yillarda til va birlashish siyosati ostida MARning hokimiyati tepasiga marqum prezident Anvar Saadat va uning tarafdorlari keldi. U prezidentligi mobaynida arab mamlakatlari birlashishi yo'lida tinimsiz kurash olib bordi va Misr bilan Suriyani birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Lekin bu ittifoq uzoqqa cho'zilmadi. Anvar Saadatning shiori va uning tarafdorlarining birdan-bir orzusi quyidagicha edi: «Ko'p yillar mobaynida chet elga haramlik va arablarning bo'linib ketishi tufayli yuzaga kelgan tilning tarqoqligi va milliy baxtsizlik haqida, shuningdek, mustaqil rivojlanish yo'liga o'tgan arab xalqining tarixdagi va bugungi kundagi ahamiyati, o'rni haqida gapirishga har bir arab davlatining arab millatiga mansub bo'lgan fuharosi davlat tomonidan qonuniy ququq olishi kerak». Xullas, Anvar Saadat prezidentlik qilgan davrda hozirgi kunda bo'linib ketayotgan arab mamlakatlarini birlashtirish va yana arab adabiy tilini saqlab qolishdagi urinishlar kuchaydi.

Arablashtirish tendentsiyasi arab madaniyatining o'ziga xosligi va chuqur tarixiy an'anaga ega ekanligini ko'rsatishdan iboratdir. Shuningdek, arablashtirishdan maqsad harb madaniyati va tillarining o'zaro zo'rlab kiritilishi, ya'ni inglizcha, frantsuzcha, nemischa va boshqa evropa tillaridan atamalar kiritilishi natijasida arab tili strukturasining buzili-shiga harshi faqat arab tili va madaniyatining o'zligini va milliyligini saqlab qolishdan iboratdir. Masalan, Xitoy davlati o'z ona tilini uch ming yildan beri hech bir tildan (na inglizchadan, na frantsuzchadan) qabul qilmay, o'zligicha va qadimiylikicha saqlab kelmoqda. Agar xitoy tili birorta so'zga, atamaga muqtoj bo'lsa, darrov xitoy filologlari bu muammoni qal qilishga urinadilar va echimini topmaguncha izlanishda bo'ladilar. Nega endi bu siyosatni arab davlatlari eplay olmaydilarq Arab tili ham juda boy til. Agar birorta neologizmga eqtiyoj bo'lsa, arab tilining ichidan darrov yangi atama o'ylab topish mumkin. Alloqqa shukronalar bo'lsinki, hozirgi kunga kelib, mana shu muammo arab filologlari tomo-nidan qal etilmoqda. Tilshunoslik nuqtai nazardan haraganda arab adabiy tilini na faqat tiklash, tozalash, balki, yozma va og'zaki uslubda ham ishlatiladigan vosita sifatida qo'llash qaqiqiy til siyosati bo'lsa kerak.

1972 yil dekabr oyida Shimoliy Yamanning poytaxti Sana shahrida o'tkazilgan «Butun arab davlatlari maorif vazirlari anjumani»da quyidagi rezolyutsiya qabul qilindi: «Arab ada-biy tili arab xalqining fikr va qoxishlari ifoda etiladigan til bo'lishi hamda ta'lim uchun vosita sifatida zarur va ishlatilishi kerak». «Arablashtirish siyosatini faqat shu til siyosati orqaligina muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin»[39], degan taklif barcha arab davlatlari tomonidan ma'qullandi. Muqokama

jarayonida til tanlash muammosi katta ahamitga ega bo'lgan siyosiy statusga aylandi. Shunda ular arab adabiy tilini Lahja va shevalardan afzal ko'rdilar. Arab xalqining madaniyati va ta'lim tizimiga bir nazar tashlasak, ularning o'z tillariga bo'lgan e'tiqodlari ortib borayotganining guvoqi bo'lamiz. hozirda arab davlatlarining ayrimlarida chet ellik kishilarga «Arab tilini o'rganishlari uchun» majburiy kurslar tashkil etilganini uchratish mumkin. Bundan tashhari arab tili Qur'oni Karim tili bo'lgani uchun faqat arab davlatlari doirasidagina emas, balki musulmon davlatlari uchun ham ahamiyatlidir.

Ma'lumki, Qur'on tilovat qilinayotganda uning musiqaga monand oxangi hamda o'ziga xos jilosi mavjudligi namoyon bo'ladi. Arab bo'lmagan musulmon xalqlarining Qur'on tilovat qilayotganlarida ularning nutq organlari bu tilga to'liq moslashmaganligi sababli uning oxangiga ma'lum ma'noda putur etishi mumkin. Arablashtirishning asosiy vazifalaridan birini boshqa xalqlar uchun shu tildagi oxangni saqlab qolish masalasi tashkil etadi.

Arablashtirishni amalga oshirishda ikki xil yo'nalish bor.

1. **An'anaviylik.** An'anaviylik tarafdorlari arablashtirish orqali qadimda taraqqiy etgan iqtisod va madaniyatni tiklab, o'sha asosida jamiyatni rivojlantirishni yoqlay-dilar, ya'ni klassik arab tiliga sodiq qolish musulmon an'analarga sodiqlik va arab adabiy tiliga xos barcha an'analarning yo'lboshchisi bo'lishi kerak, degan fikrni yoqlaydilar.

2. **Zamonaviylik.** Zamonaviylik tarafdorlari esa harb yo'lini tanlab, frantsuz va ingliz tillariga katta ahamiyat bergan holda arab davlatlarining harb madaniyati asosida rivoj-laninishini ma'qullaydilar. Bu fikrdagilar, asosan, Marokash, Tunis, Mavritaniya va Misrda ko'pdir. Lekin davlat raqbarlari ularning bu fikrlariga harshidirlar. Arab mamlakatlaridagi bunday muammolarni o'rganish markazi 1979-1983 yillarda o'tkazgan ko'p sonli simpozium-larda arablashtirish va arab adabiy tili haqida turli xil fikrlar aytili. quyidagi masalalar bo'yicha ishlar ko'rib chiqildi:

1. «Arab birlashish muammosida maorifning roli».
2. «Arab millatchiligi, fikrlar va amaliyot».
3. «Arab birla-shishidagi tilning va adabiyotning roli».

Bizning fikrimizcha, bu ikki yo'nalish ma'lum ma'noda o'z afzalliklariga ega. Arablashtirish jarayonida ularni bir-biriga hamjihat, uyqunlashgan holda olib borilsa maqsadga muvofiqdir. Doktor Eqson Abbos «Zamonaviy milliy madaniyatdagi an'ana» maqolasida arablashtirish siyosatini yuqorida eslatib o'tganimizdek, lingvistik nuqtai nazardan kelib chiqqan holda shunday ta'riflaydi: «Arablashtirishga arab tilining muloqot jarayonidagi bir vosita sifatida e'tirof etilgani kabi harab bo'lmaydi. Arablashtirish - bu adabiy tilning o'zaro muloqot vositasi, chet tillardagi ilmiy texnikaviy atama-larning arab tilida milliy atamalar asosida yaratilishi bo'libgina qolmay, balki yana boshqa xususiyatlarni o'zida mu-jassam etadi. Arablashtirish bu arab tilida fikrlashga undaydigan harakat hamdir»[40].

Shunday qilib, arab mamlakatlarida arablashtirish dasturi-ni quyidagi muammolarni echish bilan amalga oshirish mumkin:

- 1) chet tilini muloqotdan chiharish va uni arab tili bilan almashtirish;
- 2) arab adabiy tilini muloqot vositasida hozirgi vaqtda xalq og`zaki tili qo`llanilayotgan joylarga kiritish, adabiy tilning faqat yozma ravishda qo`llanishini emas, balki og`zaki muloqotda ham ishlatilishini ham ta'minlash;
- 3) ta'lim tizimida boshlanqich maktablardan to oliy o`quv yurtigacha o`qitishni chet tilidan arab tiliga o`tkazish;
- 4) fan, texnika va madaniyatda yangi tushunchalarni anglatish uchun milliy atamalar ishlab chiqish;
- 5) butun arablar miqyosida atamashunoslikni birlashtirish;
- 6) ta'lim tizimining barcha soqalarini arablashtirish va islomlashtirish;
- 7) arab davlatlarida yashaydigan boshqa millat vakillarini arab tilida so`zlashishga o`rgatish[41].

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytganda, arablashtirish siyosati keng hamrovli tushuncha bo`lib, o`zining dasturlarini ishlab chiqqan, asosan, arab davlatlarida tarqalib, avj olayotgan siyosiy, ma'naviy harakatdir. Bu harakat na faqat arabshunos-tilshunos, balki butun dunyodagi ko`pchilik olimlar, siyosatshunoslar diqqat markazidadir.

Savollar:

1. Arab adabiy tilining rivojlanish davri qandayq
2. Arab tili va adabiyotida turqunlik davri nechanchi yillarga to`g`ri keladiq
3. Nechanchi yillarda arablashtirish harakati avj oldiq
4. Arablashtirishning asosiy vazifasi nimalardan iboratq
5. Arab tilshunosligining muammolari qandayq

Tayanch iboralar:

Joqon tili, sharq madaniyati, arablashtirish harakati, tendentsiya, an'anaviylik, zamonaviylik, maorif, ta'lim tizimi, milliy madaniyat, fikrlash, atamashunoslik.

Mustaqil ish mavzulari:

Zamonaviylik va an'anaviylik harakati haqida

Adabiyotlar:

1. Sharbatov G.Sh. Sovremenno`y arabskiy yazo`k. -M., -1961.
2. Shvaytser A.D. Sotsialnaya differentsiatsiya angliyskogo yazo`ka. -M., -1983.
3. Shagal V.E. Yazo`kovoy aspekt natsionalno`x protsessov v arabskix stranax. - M., -1987.
4. الصياد، محمد المنجي. التعريب في الوطن العربي، بيروت، 1982
5. المستقبل العربي، 1981، عدد 8

Ma'ruza 6. Arab mamlakatlarida arab tilining mavjud turlari.

Reja:

- 1. Arab mamlakatlarida arab tilining iste'molda mavjud bo'lgan turlari**
- 2. Arab kitobot usulining rivojlanishi**

Arab mamlakatlarida arab tilining iste'molda mavjud bo'lgan turlari Zamonaviy arab tili hozirgi paytda yigirma ikkitadan oshiq arab davlatlarida davlat tili hisoblanadi. Bundan tash-hari Isroil davlatining arab aqolisi, Baxreyn, Efiopiya, Samalidagi xalqlar, Amerika, Eron va O'rta Osiyolik arablar bu tilda gaplashadi. qindiston, Pokiston, Afqoniston va Indo-neziya davlatlarining musulmon aqolisi ham bu tilni yaxshi bilishadi.

Zamonaviy arab tili klassik arab tilining rivoj-lanishi natijasida paydo bo'ldi. Zamonaviy arab tili XIX asrning ikkinchi yarmida milliy ozodlik harakatlari vaqtida yuzaga keldi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab, ijod et-gan yirik yozuvchilar, shoirlar, jurnalistlar zamonaviy arab tilini yaratishda o'zlarining katta xissalarini qo'shdilar. Bu-lar misrlik Aqmad Shavqiy, qofiz Ibrohim, Abdulloq Nodim, Mustaf Komil, Jurji Zaydon, livanlik Nasif al-Yazijiy, Butrus al-Bustoniyy, Aqmad Foris ash-Shidyak, Amin ar-Rayqo-niy, suriyalik adib Isqoq Abduraqmon al-Kavokibi, iroqlik Abu Tamma ash-Shiroziy, Maqdi al-Xolis va boshqalardir[30].

Hozirgi vaqtda arab tilining iste'molda mavjud bo'lgan 4 ta shakli bor:

1. Klassik arab tili
2. Zamonaviy arab tili
3. Kundalik so'zlashuv tili
4. Lahjalar (dialektlar)

Arab adabiy tili klassik arab tili bilan zamonaviy arab tilini o'z ichiga oladi. Klassik va hozirgi adabiy til har xil tushunchalardir, ularni farqlash kerak[31].

1. Klassik arab tili arab madaniy merosining tarixiy ti-lidir, ya'ni qadimgi arab she'riyati, qaqramonlik qasida-lari mana shu tilda yozilgan. Shu bilan birga u «Qur'oni Karim» va «hadisi sharif» tilidir. hozirda klassik til diniy mavzulardagi radio va talevidenie eshittirishla-rida, diniy oliygoqlarda, masalan, Misrdagi «Al-Azhar» universiteti ustozlarining ma'ruzalarida va boshqa mu-sulmon markazlarida ishlatiladi. Bu tilda mukammal gram-matik ko'rinishga ega bo'lgan, keng leksik tarkibli, johiliya davri nazmi va qadimiy qabilalar Lahjalarining nodir xu-susiyatlarini o'zida umumlashtirgan boy tilni ko'ramiz. Klassik til hozirgi zamon arab adabiy tilining shaklla-nishi uchun zamin bo'ldi. qadimgi arab tili niqoyatda bar-harordir. Zamonaviy o'quvchi tegishli tayyorgarlik bilan bir necha yillar oldin yozilgan asarlarni o'qishi va tushunishi mumkin.

2. hozirgi arab tili esa klassik arab tilidan farqli ravish-da ko'p funktsiyalidir. U ilm-fanda, badiiy adabiyotda, ij-timoiy-siyosiy, ommaviy xabarlarida, ta'lim-tarbiya muassa-salarida qo'llaniladi. Yuqoridagi fikrlarga ko'ra ingliz olimi

T.F.Mitchell shunday deydi: «Yozma klassik adabiy til Qur'on hamda ilk adabiyot tilidir. Zamonaviy arab tili esa adabiyot, jurnalistika, radio, televidenie, rasmiy muqokama tilidir. Ozmi-ko`pmi butun arab dunyosi uchun umumiydir»[32].

Ammo klassik til va zamonaviy arab tili o`rtasida farqlar bor. Garchi zamonaviy arab adabiy tilini biladigan kishilar arab madaniy merosining oltin fondiga kirgan, klassik arab tilida yozilgan asarlarni o`qib tushunsalarda, shu ikki til o`rtasida leksika va ma'lum darajada sintaksisda farq borligini ko`rishadi. Zamonaviy arab adabiy tili o`zining uzoq tarixiy rivojlanish davrida bir qancha o`zgarishlarni boshidan kechirdi. Sezilarli farqlar nafaqat klassik va zamonaviy til o`rtasida, balki johiliya (VII asrning o`rtalari), ummaviya va abbosiylar davrida (VIII asrdan XII asrgacha) yaratilgan asarlarning o`rtasida ham ko`rinishi mumkin. Johiliya adabiyoti o`zida ma'naviy dunyosi anchagina chegaralangan badaviylarning hayotga bo`lgan munosabati va harashlarini aks ettirgan. Ilk islom davriga kelib esa, arab tili ancha barkamol, ravon, boy va ta'sirchan bo`lgan. Uning grammatik tuzilishi badaviylar tiliga xos bo`lgan ortiqcha ism va fe'llarning qiyin ko`rinishlaridan xoli bo`lgan.

Zamonaviy arab adabiy tili ham yozma, ham og`zaki suqbat-lashish shakllarida ishlatiladi. Arab adabiy tilidagi xat turi va og`zaki so`zlashuv turi chegaralarini belgilash muammosi ham arab lingvist olimlari va Evropa lingvist olimlari tomonidan xali keng muqokama qilinmagan. Shunga haramay, ommaviy kommunikatsiya (radio, kino, televidenie) kuchayishi bilan til-ning og`zaki turi va uning xat turi bilan munosabati allaqachon ilmiy tekshirish mavzusi bo`lishi lozim. Og`zaki suqbatlashish shakli asosan ilmga doir suqbatlarda, jamoat oldidagi chi-qishlarda, ma'ruza o`qishlarda qo`llaniladi. Garchi og`zaki arab tilining uslubi yozma arab tilning uslubiga o`xshasada, biroq nutq so`zlayotgan kishi o`z fikrini to`g`ri ifodalashi va vaqtdan yutish uchun «masalan» مثلا-, «ya`ni» - يعني, «mumkin» - ممكن kabi so`zlarni bir necha bor takrorlaydi. Og`zaki nutqning yana bir xususiyati gapirganda so`zlarni takrorlashda, murojaat so`zlarini ifodalashda qisqa ismiy jumalarni (ya'ni bir-biri bilan boqliq bo`lmagan) zikr etishda ko`rinadi. Masalan[33]:

الحياة لذیذة... الحياة لذیذة
والله يا إخواني... أنا رأيت الطفل
الكهرباء مقطوعة... والحياة مقطوعة

3. Kundalik so`zlashuv tili: Arab adabiy tilining yana bir ko`rinishi mavjud.

U kundalik so`zlashuv tilidir. Bunday tilning yuzaga kelishiga asosiy sabab zamonaviy arablarda o`zgarishga duch kelgan tushunchalarni, tasavvurlarni ifodalab berish eqtiyoji bo`ladi, ularning ona tillari bo`lgan Lahjaning ta'lim-tarbiya, madaniyat va texnika rivojlani-shiga boqliq bo`lgan yangi jarayon va qodisalarni ifodalab berish uchun etarli imkoniyati yo`q edi. Zamonaviy arab tiliga kelsak, u yuqoridagilarni bajarishga moyil bo`lmay qoldi.

Mazkur til o`qimishli odamlarning tilidir. Arablar uni اللغة الوسطى, ya'ni «o`rta til» yoki عربيات المثقفين «ziyolilarning tili» deb ham atashadi. Kundalik so`zlashuv tili

Misrda Lahjada yozilgan she'riyat Misr adabiyotining salmoqli o`rnini egallaydi. Nagib Surur, Abduraqmon Anudi, Saloq Gaqin kabi shoirlar Lahjada yozilgan she'rlari bilan keng ommaga tanilgan. Arab davlatlarida iste'molda bo`lgan arab tilining qaysi qaysi soqalarda ishlatilishini biz quyidagi jadvalda yaqqol ko`rishimiz mumkin[36].

Arab tilining ishlatilishi	Misr	Sudan	Kuvayt	Tunis	Jazoir
Muomala tili- yerlik aqolining	KST va L	KST va L	KST va L	KST va L	KST va L
Mamlakatda erlik aqolining boshqa davlat kishisi bilan muomala tili	KST	KST	KST	KST	KST
Arab davlatlararo va xalharo muomala tili, rasmiy til	ZAT	ZAT	ZAT	ZAT	ZAT
Boshlanqich maktablarda	KST	KST-L	KST	KST-L	KST-ZAT
O`rta maktablarda	ZAT	ZAT	ZAT	ZAT	ZAT
Oliy o`quv yurtlarida	ZAT ang. Fran.	Ang.	ZAT- ang.	ZAT-fran	ZAT-fran
Din tili	KAT.ZAT	KAT-ZAT	KAT	KAT	KAT
Matbuot tili	ZAT-ang.fran.	ZAT-KAT	ZAT	ZAT-fran	ZAT-fran
Radio, televidenie tili	ZAT-KST	ZAT-KAT	ZAT	ZAT-ital fran	ZAT
Armiya, politsiya tili	KST	KST	KST	KST	KST

- ZAT - zamonaviy arab til
- KST - kundalik so`zlashuv tili
- KAT - klassik arab tili
- L - lahjalar

Savollar:

1. Zamonaviy arab tili qanday tilq
2. Klassik arab tili qaerlarda iste'mol qilinadiq
3. Kundalik so`zlashuv tili yana qanday nomlanadiq
4. Yosh bolalar va oddiy xalq qaysi tilda gaplashadilarq

Tayanch iboralar:

Arab adabiy tili, Lahjalar, Al-Azhar, jurnalistika, radio, matbuot, og`zaki nutq, tilning tipologik o`xshashligi, tadqiqotlar. Dolzarb muammo.

Mustaqil ish mavzusi.

1. Misr shevasidan namunalar
2. Arab mamlakatlarida ta'lim sistemasi

Adabiyotlar:

1. Sharbatov G.Sh. Sovremenno`y arabskiy yazo`k. -M., -1961.
2. Shvaytser A.D. Sotsialnaya differentsiatsiya angliyskogo yazo`ka. -M., -1983.
3. Shagal V.E. Yazo`kovoy aspekt natsionalno`x protsessov v arabskix stranax. - M., -1987.

Ma'ruza 7. Arab yozma tilidagi yodgorliklar

Reja:

1. **Dastlabki arab tilidagi yodgorliklari**
2. **Fanda arab yozma yodgorliklarini o`rganilishi**

Bizga ma'lumki, arab tilining vatani qizil dengiz, qind okeani va Fors ko`rfazidan tortib, Frot daryosigacha bo`lgan maydonni egallaydi. Arabiston juda katta orol hisoblanib, uning maydoni 3 mln kv. km.ga teng. Arablar u erni “جزيرة العرب” ya'ni “Arablarining oroli deb nomlashadi”.1 qadimiy arablar o`troq va ko`chmanchi bo`lib kun kechirishgan. “Arab” degan nom ma'lum bir xalqning o`zini atash uchun yaratilgan emas. Bu nom ularning avlodlari saqrolarda ko`chmanchi bo`lib yurganliklaridan kelib chiqqan. “Ko`chmanchi” degan nom keyinchalik bir xalqning nomi bo`lib qolgan.

Zero “Arab” so`zining luqaviy ma'nosi ham “ko`chmanchi, arab” deganidir. Eramizdan avvalgi IX-VIII asrlarga taa'lluqli manbalarda yozilishicha, Arabiston yarim orolida yashovchi xalqlarni “Aribi” deb nomlashgan. Xuddi shu davrda yozilgan Bibliya matnlarida ham Arabiston xalqi va Suriya aqolisini “Aribi” yoki “Arivi” deb atashgan. Eramizdan avvalgi Sh asrga oid qadimiy yaqud tilidagi manbalarda esa bu xalqlarning tilini “Lashon aravit” deb nomlashgan. Keyinchalik lotin tilidagi manbalarda arab tili “Arabica lingua” deb yuritilgan.2

Eramizning V-VI asri ya'ni johiliya poeziyasi davri manbalarida “apab”, “arabiy” degan so`z qo`llanilmagan edi. Bu davr shoirlari o`z asarlarida o`z qavmini qabilaviy nom bilan atashgan, ya'ni, qalb, Ibn qilol, Ibn Asad kabi. Biz arab tili rivoji tarixiga nazar tashlasak, arab tili degan nom birinchi bor eramizning VII asr o`rtalarida yozilgan Qur'oni Karim oyatlarida uchraydi.

الاعراب اشد كفرا ونفاقا واجدر الا يعلموا حدود ما انزل الله على رسوله والله عليكم حكيم" (سورة التوبة-97)

“A'robiylar kufr va nifoqda qattiqroq va Alloq o'z Payg'ambariga nozil qilgan narsalarning chegaralarini bilmaslikka loyiqroqdirlar. Alloq bilim va qikmat soqibidir”. (Tavba surasi 97-oyat).3

"وهذا لسان عربي مبين" (سورة النحل، الآية 103)

“Bu (Qur'on) esa ochiq ravshan arabiydir”. (Naql surasi 103-oyat).4

Qur'on nozil bo'lgan va Islom din sifatida shakllangan davrda arablar yarim ko'chmanchi-badaviy elatlardan iborat xalq hisoblanar edi. Islomning paydo bo'lishi bilan arab qabilalari birlashib yagona davlat ya'ni xalifat vujudga keldi. Rasululloqdan (s.a.v.) so'ng Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib (r.a.) birin ketin xalifa bo'ldilar. Ular islom dinini yoyish bilan shuqullandilar. Arablar Afrikaning shimoliy qismini, Eron, Markaziy Osiyo, Kavkazorti o'lkalari, harbd Pireney yarim oroligacha bo'lgan joylarni fatq etdilar.

Xitoy chegaralaridan Ispaniyagacha bo'lgan xududda katta bir davlat tuzdilar. Tabiiyki ular fatq etilgan xalqlar madaniyatini tezda o'zlashtirdilar. “Arab madaniyati” deb nom olgan madaniyat xalifalikni tashkil etgan xalqlar madaniyati asosida islomga moslashtirilib mujassamlashtirilgan madaniyat edi.5 Arab madaniyati ikki davrga ega: birinchisi yopiq Arabiston yarim orolida tarixi va udumi bir bo'lgan, kelib chiqishi va tiliga nisbatan bir jinsli bo'lgan jamoalar madaniyati ya'ni “Sof arab madaniyatidir”.

Ikkinchisi esa “Arabiy” deb nom olgan madaniyat VII asrning birinchi o'n yilligida harbiy Osiyo, Shimoliy Afrika va Janubiy Evropaning ba'zi viloyatlarida dunyo ahamiyatiga ega bo'lgan madaniyatdir. Eng muqimi, arab tili orqali qadimiy arab madaniyatini uning yozma merosini o'rganamiz.

Aynan arab tilida juda ko'p qimmatli, adabiy, ilmiy va ideologik asarlar yozildi.

Eramizning birinchi asridan boshlab Suriya davlati va Janubiy Arabiston davlatlari qududida yashovchi ko'chmanchi arab qabilalarining vakillari toshga yoza boshladilar. Ular sobey va ximyoriy yozuv shaklidan foydalanganlar. Bu toshga bitilgan yozuvlar qadimiy arab tilining eng birinchi yozma yodgorligi hisoblanadi. Shu davrdan boshlab kishilar laqyoniy, samudiy va safoviy yozuvlaridan foydalanganlar. Laqyoniy va samudiy yozuvlari Arabistonning shimoliy-harbiy tomonlarida yashovchi arablarning yozuvidir, safoviy yozuv esa Janubiy Suriyaning as-Safo deb atalmish yarim saqroviy mintaqalarida yashovchi xalqlar yozuvidir. Bu yozuvlarda faqatgina undosh harfdan foydalanilgan bo'lib juda qisqa bitilgan. Bu yodgorliklarda ko'chmanchi arablar o'zlarining nomlarini va qabilasining nomini yozganlar.

Ba'zan bu yozuvlar to'liqroq bitilganki, unda muallif o'zining nomi bilan birga, shu joyga qachon kelganini va uning qaerga yo'l olayotgani haqida, hamda o'z yaqin harindoshining o'limi to'g'risida yozgan. Bu yodgorliklar shundan dalolat beradiki, o'sha davr ko'chmanchi arablari ham yozishni va o'qishni bilganlar. Bu yozuvlarda arab tilining asosiy xususiyatlaridan biri bo'lmish aniqlik artikli “xa” yoki “xan”

tarzida qo'llanilgani seziladi. Shu bilan birga Janubiy Falastin va Suriya davlatining ba'zi bir mintaqalaridan topilgan yodgorliklar oromey va nabotiy yozuvlarida bitilgan. Bu yozuvlarda arab tilidagi ism kategoriyasi, ismlarning turlari va “al” aniqlik artikli bilan yozilgan so'zlar kuzatiladi. O'sha davr yozma yodgorliklaridan ko'chmanchi arab qabilalari Lahjalarida aniqlik artiklining turli xil shakllarining qo'llanilganligini bilib olish mumkin.

Bizgacha etib kelgan arab tilining eng birinchi yozma yodgorliklari eramizning IV-V asriga taalluqlidir. Garchi bu yozuvlar sof arab xatida yozilmagan bo'lsada, unda oromey va qadimiy arab tilining xususiyatlaridan farqli ravishda arab tilining asosiy xususiyatlari o'z aksini topadi.

Birinchi arab yozuvida bitilgan yodgorlik Damashqning janubiy sharqidan 120km. narida joylashgan “an-Nimar” qishloqidan topilgan. Uning yozilish sanasi eramizning 328 yiliga, qadimiy yil taqvimini bo'yicha 223 yilga to'g'ri keladi. U 116 sm x 33 sm hajmdagi qabr toshiga hammasi bo'lib 5 qator o'yib yozilgan xatdir. Arab adibi va tarixchisi Jurjiy Zaydon bu matnni quyidagicha izoqlaydi.⁶ “Bu barcha arablarning podshosi, tojdor, Asad va Nizor qabilalari va ularning podsholarini bo'ysundirgan, hozirgi kungacha Mazqijni engib kelgan, zafar uni Shamarning shahri Najron devorlarigacha eltgan, Ma'ad (qabilasi)ni tobe' qilgan, o'qillarini qabilalarga boshliq qilib qo'ygan, ularni o'z o'rniga forslar va rimliklarga vakil qilib jo'natgan Imrul qays bin Amrning qabridir. Mamlakat shuhrat va qudratda hech qachon bugungi darajaga etmagan. U 223 yili ettinchi kislul kuni vafot qildi”. Ushbu yodgorlik hozirda Frantsiyadagi Luvr muzeyida saqlanadi. Unda arab tilidagi ismlar va ularning aniqlik artikli “ال” bilan kelishi hamda o'qil so'zining “بن” deb emas, balki “بر” deb yozilishi kuzatiladi. Yozuvda arab tildagi sinq ko'plik son qoliplari va “لم” inkor yuklamasi bilan kelgan fe'l shakllari mavjud.

1970 yil Saudiyalik arxeolog al-Ansoriy tomonidan Kindlar davlati poytaxti bo'lmish “قرية الفوعة” (Gullagan qishloq)da janubiy arablarning sobey yozuvida bitilgan yodgorlik topildi. Bu yodgorlik qabr toshi bo'lib, undagi yozuvlarga ham “ال” aniqlik artiklining shamsiya harflari bilan boshlangan so'zlardagi assimilyatsiya qolati va ismlarda to'g'ri ko'plik son yasovchi qo'shimchalarning borligi aniqlangan. Keyinchalik Suriyaning Aleppo rayonidan eramizning 512 yiliga oid yodgorlik, Damashqning janubiy sharqiy rayonidan eramizning 528 yiliga oid yodgorlik va Damashq atrofidan eramizning 568 yiliga oid yodgorlik topildi.

Klassik arab tilida yozilgan eng birinchi yozma yodgorlik eramizning VII asri o'rtalarida yozilgan Qur'oni Karim va Payg'ambarimizning yozishmalaridir. Misr xududidan topilgan davlat arboblarning qukumat va shaxsiy qujjatlari, popirusga yozilgan arablarning tarixiy, hamda islomgacha davr poeziya asarlari eramizning VIII-IX asriga oid bo'lib, bular ham keng ma'noda arab madaniyatining beqiyos boyligi hisoblanadi.

O'rta Osiyodan ham arxeologik tadqiqotlar natijasida arab yozuvida bitilgan VIII asrga oid ikkita yozma yodgorlik topilgan. Birinchisi qo'yning kurak suyagiga yozilgan arab yozuvidir. Unda faqat arab alifbosidagi harflar bitilgan. Ikkinchisi esa,

qadimgi arab qujjati bo`lib, Suqd shoqi Devashtichning Xuroson hokimi Amir al-Jarroq ibn Abdulloqga yozilgan maktubidir. (718-719).⁷

Arab mamlakatlari ligasi qoshida ochilgan Arab qo`lyozmalari institutining birinchi direktori Saloqiddin al-Munjid aytib o`tishicha:

“hozirda jahon ilmiy xazinasida 600 mingga yaqin arab qo`lyozma asarlari mavjud bo`lib, ularning soni 8mln. nusqani tashkil etadi. 120 mingga yaqin arab tilidagi qo`lyozma asarlarning va 300 mingga yaqin qisqa, har xil mavzudagi qo`lyozma asarlarning ilmiy katalogi tuzib chiqilgan”.⁸

Jahon miqyosida arab tilidagi qo`lyozma asarlarni saqlash bo`yicha Turkiya davlati birinchi o`rinda turadi. Bu davlatda haryib 155 mingga yaqin qo`lyozmalar mavjud. Istambul kutubxonasida 85 ming qo`lyozma asar saqlanadi. Arab tilida yozilgan nodir asarlarni o`rganish sharq xalqlarining madaniyatini, tarixini, til adabiyotini, va urf-odatini mukammal bilishga hamda ilmiy yangiliklar tatqiq qilib, farovon hayotimizning turli soqalarida faoliyat ko`rsatishimizga yordam beradi.

Savollar:

1. “Arab” so`zi dastlab qaysi manbalarda zikr etilgan?
2. Arab tilidagi yodgorliklarda qanday grammatik kategoriyalar o`z aksini topgan?
3. Arab qabilalarida yozuvdan foydalanilganmi?
4. Hozirda arab tilidagi yozma manbalarga ahamiyat qanday?

Tayanch iboralar:

Tavrot matnlari, sura, qabr toshi, ﺍﻟ-aniqlik artikli, Turkiya davlati, Saudiya Arabistoni, al-Ansoriy

Mustaqil ish mavzulari:

“Baytul-qikma” haqida ma'lumot to`plash

Adabiyotlar:

1. Belyaev E.A. “Arabo`, islam i arabskiy xalifat v rannee srednevekovye ”. M.1965
2. Belova A.G. «Vvedenie v arabskuyu filologiyu» M.2003
3. Abdulaziz Mansur “Qur’oni Karim” T.2001
4. Krachkovskiy I.Yu. «Sb. Beruni» M.-L. 1950
5. Xasanov A. “qadimgi Arabiston va ilk islom. ” Johiliya asri. T.2001..
6. Oranskiy I.M. «Vvedenie v Iranskuyu filologiyu» M.1960.
7. Belova A.G. «Vvedenie v arabskuyu filologiyu» M.2003.
8. Sulaymonova F. “Sharq va harb” T.1997
9. Belova A.G. “Ocherki po istorii arabского yazo`ka” M.1999g.
10. Xolidov A.B., Mixaylova I «Bibliografiya arabskix rukopisey» M.1982g.

Ma'ruza 8. Arab tili va adabiyotini arab matnlaridan tashharida o`rganilishi

Reja:

- 1. Evropa olimlari arab grammatikasi haqida**
- 2. Arab naqvining yaratilishi tarixidan**

Evropa olimlari arab grammatikasi haqida Uzoq vaqt davomida Evropa olimlari arab tilshunoslik yutuqlariga e'tibor bermaganlar. Faqatgina Iosif Yustus Skaliger (1540-1609) o'z faoliyatini shu soatga baqishlangandan keyin Evropa sharqshunoslari somiy tillarga qiziq boshlagan-lar. Natijada arab grammatikasining chet tillariga, qattoki lotin tiliga ham tarjima qilganlar, birinchi kitoblari paydo bo'la boshlagan, ba'zilarida esa grammatikaning sharqlari ham berilgan. Bizlargacha etib kelgan Sibaveyqiyning “الكتاب” asarining eski varianti chop etildi. Uning birinchi kitobi 1981-1989 yillarda Parijda chop etildi. Keyin Berlinda va hatto Qohiraning o'zida ham bosib chiharildi. Arab grammatik yozishmalari uch xil turdagi ilmiy yondoshish bo'lib, unga uch xil nuqtai-nazar bilan haralgan:

1. Arab tarixi haqidagi ishlarda tarixiy faktlarni eslatuvchi eng nodir manba
2. Arab adabiyoti tarixi haqidagi ishlarda nodir adabiy meros sifatida
3. Tilshunoslik muammolari qaqiagi ishlarda arab tilini o'rganishdagi ilmiy yutuqlar sifatida.

Bir qancha nazariy muammolar tuqilib, ular orasida eng tortishuvli muammo - arab grammatikasining kelib chiqishi haqida edi. Bu muammolar bo'yicha ilmiy adabiyotda turli na-zariy harashlar mavjud. Ulardan biriga ko'ra arab tilshunosligi mustaqil ilmiy yutuq hisoblanadi, Bu fakt arab olimlarining fikriga to'g'ri keladi. Ularning fikricha arab grammatikasi haqidagi izlanishlar faqatgina arablargagina xos ilm-dir. Ba'zi sharqshunoslarning fikriga ko'ra esa arab grammatikasi tizimidagi tilshunoslik nazariyasiga, Gretsiya, qindis-ton kabi davlatlarning madaniy merosi ta'sir ko'rsatgan va bu ta'sir arab xalifaliklarining rivojlanishida va turli ilmiy soqalarning rivojlanishida muqim rol o'ynagan. Ba'zi olimlar Grek tilshunosligini arab grammatikasiga ta'sir qilganligini inkor qilmoqchi bo'ladilar. Boshqalar esa X asrda arab grammatikasi namoyondalari o'z materiallarini bir tizimga solayotgan vaqtda Grek grammatikasi ham kirib kelgan deyдилar. qadimgi Grek fanlarining arab grammatikasiga ta'sir ko'rsatganligini tasdiqlovchilar sharqshunoslar orasida ko'plab topilardi.

Bundan tashhari qadimgi qind fanlarini arab grammatikasi tizimiga ta'sir ko'rsatganligi haqidagi fikrlar ham yo'q emas. V.M. Zvegintsev o'zining 1957 yilda chiq-qan «Arab tilshunosligi tarixi» kitobida yuqoridagi fikrlar haqida shunday deydi: «Arab grammatikasi tizimiga tashhari-dan bo'lgan ta'sirni shu paytgacha qilib kelingan tor doiradagi tilshunoslik ta'siri sifatida emas, balki keng hamrovli qadimgi va o'rta asrlar madaniyatini o'zaro aloqasi va qadimda yashagan xalqlar turli

doiralarining ta'siri sifatida harash kerak. Arab xalifaligi fanlarining rivojlanishida qadimgi yunon va qadimgi qind fanlari muqim rol o'ynagan. Bular haqidagi ma'lumotlar ilm aqliga o'rta asr arab ilmlarini tarjima qilinishi natijasida ma'lum bo'lgan.

Bunday tarixiy dalillarni o'rganilar ekan, arab grammati-kasi ilmiga tashqi davlatlar tillari ta'sirini inkor qilish qiyin. Ikkinchi tomondan esa, Nemis sharqshunosi K. Brokkel-man ta'kidlaganidek arab grammatikasi boshqa tillar gramma-tikasidan juda katta farq qiladi. Bu esa tashqi ta'sir faqat-gina arablarga va ularning grammatikasi vakillarining til-shunoslik haqidagi fikrlarini rivojlanishiga majbur qildi.

Lekin, arab grammatikasi tashqi tilshunoslik ta'siri bosh-lanmasidan oldin ikkilanib ma'lum yo'lni bosib o'tgan edi. Demak, arab grammatikasiga ko'rsatilgan ta'sir arab grammatik nazariyasi shakllangandan ancha vaqt keyin bo'lgan.

Arab grammatikasining shakllanishi asosan VII asrga to'g'ri keladi. Bunda ham tashqi tilshunoslik ta'siri kurinmas edi. O'rta asrdagi arab grammatikasining shakllanishi X asrga to'g'ri keladi. Arab grammatikasining shakllanishi uchun ketgan bunday uzun vaqt biror til nazariyasining ta'sir ko'rsatgan-ligini inkor qildi. Tarixiy qujjatlarning guvoqlik beri-shicha ko'plab tillarning grammatikasi yunon grammatikasi ilmlari asosida yuzaga kelgan, ammo ularning shakllanishi uchun bunday uzoq muddat talab qilinmagan.

Keyinchalik arablarning tili va dini arab xalifaligida va uning jamoatchilik hayotida muqim rol o'ynagan holda keng ko'-lamda tarqala boshladi. Arab tili xalifalikda va uning ko'p-lab soqalarida muqim o'rin tutgan. U savdo-sotiq, madaniyat va davlatni boshqarishda asosiy aloqa vositasi bo'lgan, natijada bunday qolat arab klassik tili va normalarini puxta o'rganish va uning oldiga yangi muammolar qo'yishni taqozo qilgan. Bu esa Qur'on tilining sofliğini saqlash va uni puxta o'rganish im-konini bergan. Bu esa o'z navbatida XX asrga kelib arab grammatikasining shakllanishini niqoyasiga etkazdi.

Keyinchalik ancha vaqt o'tgandan so'ng arab grammatika nazariyasiga ba'zi tashqi tilshunoslikning ta'siri bo'la boshladi. Shunday bo'lsa ham arab grammatikasi o'zining asosiy xarakterini saqlab qoldi. Uning ba'zi terminlarigina yoki ikkinchi darajali qi-soblangan ba'zi qolatlari o'zgardi. Tilshunoslikning rivoj-lanishi tarixini o'rganish ham arab tilshunosligini to'la hamrab olmagan.

Bu o'rganishlar o'rta asrlardan boshlab, bizning kunimizgacha bo'lgan tilshunoslik tarixini o'rganishga baqishlangan asar-larda ham to'la ochib berilmagan; uning sababi arab tili nazariyasi boshqa tilshunoslik nazariyasiga haraganda mukammal o'rganilmaganligidir. Shuning uchun arab grammatika ilmining asosiy qolati nazariyasini o'rganib chiqish va uning metodo-logik printsiplarini aniqlash zarur. Ilmiy adabiyotlarda arab tilshunosligi yutuqlariga ko'pincha e'tibor beriladi. Bunday yutuqlarga qind, evropa tilshunosligi rivojiga ta'sir ko'r-satgan o'zak va turlanishlar haqidagi tushuncha kiradi. Shuning-dek olimlar diqqatini orol tilshunoslarining fonetika soqa-sidagi qiladigan ishlari ham tortadi. Masalan:

tovushlarning yasash o`rni va usuli tasnifi, so`zlashda nutq organlarining qolati (artikulyatsiya) va ayniqsa fonetik qolatlarni tushunti-rish va assimilyatsiya qodisasi. Albatta, bunday qolatlarning ahamiyati juda katta. Ayniqsa ular shakllangan tarixiy davrni hisobga olinsa. Ilmiy adabiyotlarda faqat mana shunday vaqt-larni doimo eslash arab grammatik nazariyasini katta aqa-miyatga ega bo`lgan tamoyillarini bir chekkada qoldiradi va grammatika nazariyasi haqida aniq tushuncha qosil qilish imkonini bermaydi. Arab grammatikasini o`rganish o`zining max-sus yo`llari bilan ajralib turadi. Bu yo`llar arab klassik til-laridagi o`zgarishlarni tajribalarga asoslanib kuzatish nati-jasida kelib chiqadi. Bu usulning asosiy belgisi bo`lib, til-dagi o`zgarishlar va ularning til tizimidagi o`zaro aloqasi xiz-mat qilgan. Bunday baqolash asosida grammatik kategoriyalar tuzilgan. Arab klassik tilidagi turli qolatlarni tasnifi qilingan. Namuna sifatida gap bo`laklari kategoriyasi so`zlarni ot, fe'l va xarflarga bo`linishi xizmat qilishi mumkin. Agar bu terminlar Aristotelning mantiq ilmi bilan hamkorlik qila olish deb hisoblansa, shuni aytib o`tish kerakki, arab ti-lidagi gap bo`laklari Aristotel kitobidagi gap bo`laklaridan farq qiladi.

Savollar:

1. Arab tilidagi manbalar qaysi tillarga tarjima qilindi
2. Iosif Yustus Skalar kim
3. Arab grammatikasi yozishmalariga qanday ilmiy yondoshilgan
4. Nemis sharqshunosi K.Brokkelman arab grammatikasi haqida fikr bildirgan

Tayanch iboralar:

Tilshunoslik, arab grammatikasi, qadimgi qind fanlari, qadimgi grek fanlari, Logika, Sanskrit tili, nazariy mavzulari

Mustaqil ish mavzusi:

Abul Asvad ad-Duvali hayoti va ijodi

Adabiyotlar:

1. Zvegintsev V.A. Istoriya arabskogo yazo`koznaniya. -M. 1958.
2. Konrad N.I. Staroe vostokovedenie i ego novo`e zadachi. Stati. -M. 1972.
3. Krachkovskiy I.Yu. Ocherki po istorii russkoy arabistiki. Izbranno`e sochineniya. T. U. M. - L. 1958.
4. Shagal V.Z. Yazo`kovoy aspekt natsionalno`x protsessov v arabskix stranax. -M. 1987.
5. Xolidov B.Z. Akademik I.Yu.Krachkovskiy (k 100 letiyu so dnya rojdeniya). Narodo` Azii i Afriki. 1983.
6. qasanov A.A. qadimgi Arabiston va ilk islom johiliya asri. -T., 2001

Ma'ruza 9. Evropa va Rossiyada arabshunoslikning rivojlanishi

Reja:

- 1. Rus arabshunos olimlarining arab tili rivojiga qo'shgan hissasi**
- 2. X.K.Baranov hayoti va ijodi**
- 3. I.Yu. Krachkovskiy hayoti va ijodi**

Rus arabshunos olimlari XVIII -XIX asr oxirlari XX asr boshlarida mustaqil maktab sifatida shakllangan rus arabshunosligi o'z orasida butun dunyo arabshunoslari tomonidan tan olingan olimlar va pedagoglar avlodini etishtirib chihardi.

Biz rus olimlaridan A.V. Boldirev (1780-1842), X.D. Frena (1782- 1851), B.A. Darka (1805-1881), V.F. Girgax (1835-1887), V.R. Rozen (1849-1908) singari mashhur arabshunoslarni eslasak arziydi. Shunday arabshunos - filolog olimlardan biri Boldirev va uning shogirdlarining Moskvadagi faoliyatiga to'xtalsak, Moskva universiteti 1811 yilda rus professori A.V. Boldirev sharq tillarini o'qitishni boshlagan yagona bilim dargoqi edi. Boldirevning bu tillarga qiziqishi universitetni tugatgan yilda (1806) ayon bo'lgan edi. Uning tarbiyachisi M.N. Muravyov o'sha paytdayoq unga sharq tillarini o'rgatish uchun Gattegenga jo'natish niyati borligini yozgan edi. Chet elga jo'natilgan Boldirev Gemaniyada A.G. Eyxorn (1752-1827) quzurida somiy-shunoslik va adabiyotshunoslikning jiddiy maktabini o'tadi va bir necha yil mobaynida Parijda Silvestr de Sasi (1758-1838) dan musulmon sharqi tillarini o'rgandi. Ustozlaridan birinchisining ta'sirida u 1898 yildayoq Gattegenga V.Jons-ning (1746-1797) inglizcha asari asosida o'zining ilk tekstolo-gik ishi, ikki muallaq, matnini nashr ettirdi.

Boldirev yarat-gan birinchi qo'llanma o'sha paytdagi fan yutuqi, deb e'tirof etildi va uning har ikkala nashri (1827, 1836) ham hech mu-bolaqa qilmay aytganda, butun Rossiya bo'ylab tarqaldi. Uning o'z o'qituvchisi Silvestr de Sasi ning puxta ishlangan to'pla-miga asoslangan grammatikasi - qoyat siqiq, lekin o'z davriga nisbatan olganda qoniharli edi. Bu qo'llanma Navrotskiyning (1867) keng ko'lamli «Tajribalari» chiqqunga qadar o'zining o'quv ahamiyatini saqlab qoldi. Yosh tadqiqotchi tomonidan yara-tilgan «Arab xrestomatiyasi» yanada katta ahamiyatga ega bo'ldi va ikki marta (1827, 1832) nashr qilindi.

Oxirgi nashrida bu asar til o'rganishni boshlovchilar uchun qulay bo'lgan luqat bilan to'ldirildi. Boldirevning «Arab xrestomatiyasi»ning ahamiyati fan tarixida niqoyatda kattadir, Kitobga ko'plab mayda qikoyalar va rivoyatlar kiritilganligi tarjimalar uchun juda katta qulaylik tuqdirdi va rus tiliga o'girilgan holda shu asarlar Boldirevning o'zi va shogirdlari tomonidan o'sha paytdagi turli nashriyotlarda, asosan, Moskva jurnallari va almanaxlarida betma-bet chop etilib turdi, Boldirevni arabshu-nos sifatida qiziqtirib kelgan johiliya she'riyatidan «Muallaqa»larning to'liq

matni va tarjimasini 1832 yilda ikkita kitob bo'lib nashr etildi. 1829 yilda Moskvada chop etilgan Qur'on parchalarining nashri Boldirevga tegishlidir.

V.R. Rozen sharq tillari fakulteti talabalari safiga 1866 yilda 17 yoshda qo'shildi. Universitetda odat bo'lib qolgan sharqshunoslik an'alariga muvofiq D.A. Xvalsondan yaqudiy tili bo'yicha taxsil olgan holda, arab va fors tillariga birday e'tibor haratgan edi. «Shoqnoma»ga baqishlangan mavzudagi inshosi uchun oltin medal bilan taqdirlangan Rozen butun umri davomida chuqur bilimli eronshunos va arabshunos bo'lib qoldi. V.R. Rozen o'z tadqiqotlarining asosiy qismini Sharqiy Evropa bilan boqliq arab manbalari sari yo'naltirdi. Uning geograf al-Bakriy (1878-1903) va sayyoq ibn Fazlan (1904)ga baqishlangan tadqiqotlari ma'lum darajada tengi yo'q bo'lib qolmoqda. Uning N.Ya. Marr (1864-1934), S.F. Oldenbur (1863-1934), V.V. Bartold (1864-1930) singari ko'pgina shogirdlari borki, ularning nomlari fan tarixida hech qachon unutilmaydi. Rozenning shogirdlari orasida nafaqat olim arabshunoslar, balki diplomat arabshunoslar ham bor edi. Shunday arabshunoslar amalga oshirgan ishlardan biri A.F. Shebuning Peter-burg xalq kutubxonasida uzoq yillardan buyon saqlanib kelayotgan mashhur «Usmonli» Qur'onning (1897) atroflicha poleog-rafik tadqiqotidir. Keyinchalik qoqirada konsul bo'lgan davrda u Xeziv kutubxonasida yana bir «Usmoniy» Qur'on nusxasiga batafsil ilmiy ish baqishladi (1992). N.A. Karaulov bir muncha keyinroq o'sha erda «Musulmon ququqlari asoslari» (1909) to'plamini chop ettirdi.

Shuningdek, tarixchi N.A. Mednikov (1855-1815) ham xuddi yuqoridagi olimlar kabi edi. Uning qalamiga mansub to'rt tomlik asar Falastinning arablar iste'losidan to salb yurishlarigacha bo'lgan tarixi haqidagi materiallar to'plamidir.

Xarlampiy Karpovich Baranov

Arab filologiyasini o'qitishni kengaytirilishi ushbu fan bo'yicha turli qil o'quv qo'llanmalarining yaratilishiga olib keldi. Ularning orasida ko'zga ko'ringani X.K. Baranovning 1947 yilda nashr etilgan «Arab tili» darsligidir. Bu kitob tez orada sharqshunoslik markazlarimizda arab tili boshlanqich kurslari uchun asosiy qo'llanma deb tan olindi. Bu darslik o'sha yillarning uslubiy talablarini hisobga olib yozilgan Baranovning ushbu kitobi o'tmishda yaratilgan qo'llanmalarining qimmatli jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan birinchi chi-nakam darslikdir. Ishonch bilan shuni aytish mumkinki, Baranovning luqati mamlakat arabshunosligini rivojlantirishda nechoqlik katta rol o'ynagan bo'lsa, uning ushbu darsligi tilni o'qitishda shunday ahamiyatga ega bo'ldi. Shundan keyingi yillarda o'qitish uslubiyati yaxshilanishi munosabati bilan yangi darslik tuzish masalasi ko'ndalang bo'ldi.

Shuningdek, 1937 yil X.K. Baranovning tosh bosmada chiharilgan «Arab xrestomatiyasi»dan Suriya, Misr va Iroq gazeta, jurnal uslublari, badiiy proza asarlari namunalari o'rin olgan. Bu asar, shuningdek, talabalarni hozirgi zamon arab poeziyasi bilan tanishtirdi. Yuqorida tilga olingan «Namunalar» dan hariyb o'n yil keyin chiqqan asar uning ba'zi bo'limlarini birmuncha yangiladi va to'ldirdi. Ikkinchi jahon urushi oxirida klassik arab tili matnlari bilan Moskva Sharqshunoslik instituti

tomonidan nashr etilgan yana bir xrestomatiya ham X.K. Baranov qalamiga mansubdir. Biroq xrestomatiyalardan tashhari arab tili darsliklari «Arab tili o'rganish yuzasidan amaliy qo'llanma» ham zarur edi. 1933 yilda Moskvada X.K. Baranov, A.M. Kaxaev va R.A. Subbotin tarkibida o'qituvchilar guruqi tomonidan tuzilgan ikki qismdan iborat «Arab tili darsligi» bosmadan chiqdi. Shuningdek, X.K. Baranovning katta "Arabcha- ruscha luqat"ining nashr etilishi (1940-1946) katta voqea bo'ldi. Luqat hozirgi zamon tili leksikasini hamrab olgan va 1880-1940 yillar arab badiiy adabiyoti hamda matbuoti matnlari asosida tuzigan edi.

Ignatiy Yulianovich Krachkovskiy hayoti va ijodi I.Yu. Krachkovskiy 4 (16) mart 1883 yil Vilnyusda tuqildi. I.Yu. Krachkovskiy zamonaviy arabshunoslik maktabining yaratuvchilaridan biri bo'lgan sobiq-sovet arabshunos olimidir. U 1905 yil Peterburg universitetining sharqshunoslik kulliyotini tugatdi. 1910 yil privat dotsent (revolyutsiyadan oldingi Rossiyada va ba'zi Evropa mamlakatlarida oliy o'quv

Yurtlarida unvon jihatidan dotsentga to'g'ri keladigan shtatsiz o'qituvchi va uning unvoni), 1918 yildan Petrograd, keyinchalik Leningrad universiteti professori, ko'pgina o'quv va izlanish maskanlari olimlari kengashining a'zosi, bir qator chet el sharqshunoslik jamiyati akademiyalari, xususan Damashq Fanlar akademiyasi, Buyuk Britaniya qirolligining Osiyo jamiyati, Polsha va Eron Fanlar Akademiyasi va boshqa ko'pgina jamiyat-lar a'zosi bo'ldi. 1921 yil u SSSR Fanlar Akademiyasi akade-migi bo'lib saylandi. I.Yu. Krachkovskiy 1942 yil SSSR FAning Sharqshunoslik institutining direktori etib tayinlandi.

I.Yu. Krachkovskiy o'rta asr shningdek yangi davr arab ada-biyoti, tarixi va san'ati bo'yicha ko'pgina ilmiy ishlar mualli-fidir. I.Yu. Krachkovskiy, ayniqsa, yiqilishlarda arab qo'lyoz-malariga aloqida e'tibor haratar edi. 1943 yil I.Yu. Krachkov-skiy SSSR FA ning til va yozuv instituti olimlari kenga-shining a'zosi bo'ldi. Shuningdek, arab xristian adabiyoti, o'rta asr Efiopiya ada-biyoti va san'ati, qadimgi Janubiy Arabistonning tarixiy-madaniy va epigrafikaga oid yodgorliklar bilan shuqullanib, ular bilan tanishib chiqqan.

Uning Efiopiya adabiyoti va san'atini o'rganishga oid bo'l-gan «Efiopiya filologiyasiga kirish» (1955 y.) deb nomlangan kitobi mavjud.I.Yu. Krachkovskiy SSSR dagi arabshunoslar uyushmasi asos-chisi hamda uning raxbari bo'lgan. Uning juda ko'p kitoblari, broshyuralari, ocherk, maqolala-ri mavjud.

Bular «Ispaniyadagi arab madaniyati» broshyurasi (1937 y.), «Arab adabiyoti» maqolasi, «Izbranno'e sochetaniya» - «Tanlangan asarlar», «Abu-l Ala al-Maarri», «Risolat al-malaa-ika» (1932), «Arab geografik adabiyoti», «Arab qo'lyozma-lari ustida», «Abul-Faradj Al-Vava damaskiy» tanlangan asari, «Arab adabiyoti Amerikada» (1928 y), «XX asrdagi arab adabiyoti» (1946 y), «Muxammad Toqir al-Karoxi» (1946 y), «Rus arabshunosligi bo'yicha ocherklar» (1950 y.), «Shayx Genta-riy professor» kabi asarlaridir.

I.Yu. Krachkovskiy butun er yuzasida musulmonlarning mu-qaddas kitobi bo'lmish «Qur'oni Karim»ni rus tiliga tarjima qildi.I.Yu. Krachkovskiy 1951 yil 24 yanvarda Leningradda vafot etdi. XIX asr 70-yillarida arab asl nusxasidan «Qur'on»

rus tiliga tarjima qilindi. Bu larning biri (1871) general D.N. Boguslovskiy (1826-1893), ikkinchisi esa (1878 y.) G.S. Sab-lukov (1804-1880 y.) edi. Lekin arabshunoslikka e'tibor kuchay-gan sari, uni o'quvchilar tarjimaning ko'pgina joylarida (xatolar) noto'g'ri talqin qilinganligini anglab bordilar.

Shundan so'ng I.Yu. Krachkovskiy boshqa bir tarjima yozishni o'ylab qoldi. I.Yu. Krachkovskiy «Qur'on»ni tarjima qilish bo'yicha ish-larini 1921 y. «Qur'on» ma'ruzalari kursi bilan boqliq xol-da boshladi. Uning birinchi qilgan ishi G. Flyugel tarjimasi matn xatolarini to'g'rilash bo'ldi. Flyugelninng Qur'on bo'yi-cha birinchi ma'ruzalari I.Yu. Krachkovskiy ttomonidan 1915-1916 yillar o'qilgan edi.

Ma'lumki, I.Yu. Krachkovskiyning tarjimasi eng oxirgi tarjima. Bu tarjimani ko'rib chiqadigan bo'lsak, I.Yu. Krachkov-skiy tanlagan metodga (yo'lga) aloqida e'tibor berish kerak. Chunki, undan oldingi tarjimalarning barchasi, aynan bir xil bo'lmasi xam, bir tipdagi xatoga yo'l qo'yganlar. Bu tarjima-larning barchasi ozmi-ko'pmi musulmon ekzetik madaniyati an'a-nalariga asoslangan.

I.Yu. Krachkovskiy bajargan «Qur'on» tarjimasi esa umu-man boshqa o'zakka asoslanib yaratilgan. U o'z tarjimasi o'zagiga tarixiylik printspini qo'ygan, I.Yu. Krachkovskiy «Qur'on»ni adabiy yodgorlik, birinchi bo'lib nasrda yozilgan arab adabiyotining yodgorligi sifatida tar-jima qilgan. I.Yu. Krachkovskiy «Qur'on»ni hech qanday diniy talqinsiz tarjima qilishni oldiga maqsad qilib qo'ydi va u tushunmagan joylarini ham «quro'n»ning o'zi yordamida, Qur'on yaratilishidagi tilshunoslikka asoslanib tarjima qildi. U qadimgi arab poeziyasi va prozasidan foydalangan.

Bu yo'l bilan Qur'onni tarjima qilish, I.Yu. Krachkovskiy ilmiy faoliyatini boshqa undan oldin Qur'onni tarjima qil-gan rus va o'arbiy Evropa olimlari faoliyatidan ajratib turadi.Biroq bir qator narsalar I.Yu. Krachkovskiyga «Qur'on»-ning tarjimasini butunlay tugatishga xalaqit berdi.Tarjima matni adabiy tomondan ishlab chiqilmagan edi. Yana I.Yu. Krach-kovskiy «Qur'on»ni taxlil qilish uchun butun umrining oxirigacha yiqqan materiallar ham yozilmay qoldi.

U bu materiallarni tarjimaning qo'lyozmasiga qisqacha izoq konspekt sifatida yozib qo'ygan edi. Bu izoqlar Qur'on haqidagi ilmiy adabiyotlarga asoslangan va uning matni - aloqida so'z, birikma, konstruktsiya va boshqalarni filologik talqinini o'z ichiga ol-gandir. Agar gapning ma'nosini bildirish uchun so'z qo'shilgan bo'lsa, bu so'zlar qavs ichida berilgan. Izoqlarda berilgan materiallarning hammasi I.Yu. Krach-kovskiyning «Qur'on»ga adabiy yodgorlik sifatida kerakligi-ni va uning ma'ruzalari tuzilishini ko'rsatadi. Ko'rsatilgan bu material va sharxlarda qo'shimcha so'zlarsiz iloji bo'lmagan joylardagina qavs ichida so'zlar berilgan. I.Yu. Krachkovskiy-ning birinchi tarjimasi 1963 yil nashr qilindi. Unga V. Belyaev va P. Greznevi-chlar so'z boshi yozgan edilar. I.Yu. Krachkovskiy yozgan izoq sharqlar 1986 yilgi nashrda to'liq nashrdan chiqqan.

Savollar:

1. Moskva universitetida nechanchi yildan sharq tillari o`qitila bonlandiq
2. “Shoqnoma” asariga bag`ishlangan mavzudagi inshosi uchun kim oltin medal bilan taqdirlandi
3. X.K. Baranovning “Arabcha-ruscha luqat” kitobi qachon nashr etilgan
4. Qur’oni karimni rus tiliga tarjima qilagan rus arabshunos olimlarini bilasizmi

Tayanch iboralar:

Rus arabshunosligi, Silvestr de Sasyu, “Arab xrestomatiyasi”, poleografik tadqiqot, tosh bosma, arab leksikasi, privat dotsent, adabiy yodgorlik.

Mustaqil ish mavzusi:

1. Arab mamlakatlarida til qolati

Adabiyotlar:

1. Belkin V.M. «Istoriya stanovleniya sovremennogo arabskogo literaturnogo yazo`ka». V sbornike statey. Arabskaya filologiya. -M., izd. MGU, 1968.
2. Belova A.G. Istoriya arabskogo yazo`ka. Kurs lektsii. M.: Voenno`y institut, 1979.
3. Vasilev L.S. Istoriya religii Vostoka. -M.: Vo`sshaya shkola, 1983.
4. Sharbatov G.Sh. Arabistika SSSR (1917-1959) Filologiya. -M. 1959.
5. Sharbatov G.Sh. O trexkponentnoy funktsionalnoy paradigme arabskogo yazo`ka i statusa arabskix regionalno`x obixodno- razgovorno`x yazo`kov. V sb. statey: Problemo` arabskoy kulturo`. Pamyati akademika I.Yu.Krachkovskogo. - M. 1987.
6. Sharbatov G.Sh. Sovremenno`y arabskiy yazo`k. -M. 1961.
7. Sharq Yulduzi. -T., 1991, №1.
8. Xolidov B.Z. Akademik I.Yu.Krachkovskiy (k 100 letiyu so dnya rojdeniya). Narodo` Azii i Afriki. 1983.

Ma'ruza 10. O'zbekistonda arab filologiyasi

Reja:

- 1. O'zbekiston arabshunoslari**
- 2. B.Z. Xolidov hayoti va ijodi**
- 3. U.I.Karimov-sharqshunos olim**
- 4. N.I.Ibrohimov-Toshkent Davlat Sharqshunoslik institutining yirik arabshunos olimi**

Ma'lumki, eramizning o'rtalarida Xorazm, Buxoro, Marv, Samarqand shaharlari yirik bilim va ma'rifat o'choqlari bo'lgan. O'rta Osiyoda arab tili ilmiy til hisoblangan va barcha maktab, madrasalarda o'qitilgan. O'rta Osiyolik yirik olimlar arab tili va madaniyatining rivojlanishida o'zlarining katta hissalarini qo'shganlar. Dunyoga mashhur matematik Muhammad ibn Muso Xorazmiy, astronom Aqmad Farqoniy, yirik faylasuf Abu Nasr Farobiy, entsiklopedist olimlar Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, tilshunos olim Mahmud Koshhary, xorazmlik buyuk filolog Mahmud Zamaxshariy kabi olimlar o'zlarining o'lmas asarlari bilan arab fanini yuqori bosqichga ko'tardilar.

Hozirda ham mazkur allomalarning ilmiy faoliyatlarini davom ettirayotgan ma'rifatparvar insonlar bor. Ikki-uch yo'nalish bo'yicha ijod qilayotgan arabshunos olimlar arab tili va adabiyotini tadqiq etishda, arabiyzabon asarlarni nashr etishda o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shdilar. Shunday olimlar jumlasidan bo'lmish Ubaydullo Karimov (t.y. 1920), Eshonxo'ja Muhammadxo'jaev (1872-1953), Sodiq Mirzaev (1885-1961), Saidaziz qaniev (1882-1960), A. Sale (1899-1961), Yunus Hakimjonov (t.y. 1893), Boqi Zoqidovich Xolidov (1905-1968) va hamidulla qikmatullaev (t.y. 1929) ilmiy faoliyatlarini arabshunoslik fanining ulkan yutuqlari deb atashimiz mumkin.

Keyingi yillarda O'zbekistonda arabshunoslik fanining rivojiga ulkan hissani qo'shayotgan ustozlarimizdan N. Ibrohimov, A.Xasanov, T.Muxtorov, R.Xodjaeva, I.Abdullaev, A.Irisov, M. Akbarova, A. Abdujabbarov, N.G. Fateeva, O'.Z.Qoriev, Z.M. Ismoilov, O. Musaev kabi olimlarimizning faoliyati ibrat oladigan darajadadir.

Ubaydulla Karimovning hayoti va ijodi

Ubaydulla Isroilovich Karimov sharqshunos olim, dorishu-noslik fanlarining tadqiqotchisi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining qaqiqiy a'zosi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Beruniy nomidagi Davlat mukofoti soqibidir.

1920 yil 1 aprelda Toshkent shahrida tuqildi. U. Karimov 1941 yilda O'rta Osiyo industrial kimyo texnologiyasi insti-tutini injener - texnolog ixtisosligi bo'yicha bitirib, 1942-1944 yillarda shu fakultetda yordamchi o'qituvchi bo'lib qoldi. 1944 yilda O'rta Osiyo davlat universitetining sharq filologiyasi kulliyotiga o'qishga kirib, 1949 yilda uning eron-afqon bo'limini tugatdi.

U. Karimov 1941 yilda urushga ketib, 1942 yilda yarador bo`lib qaytadi. 1949-1951 yillarda O`zbekiston Fanlar Akademiyasi sharqshunoslik institutining aspiranturasida taxsil ko`radi. Ayni paytda, 1949-1951 yillarda universitetning sharq fakultetida fors tilidan dars beradi.

U. Karimov 1952 yildan O`zbekiston FA, Abu Rayqon Beru-niy nomidagi sharqshunoslik institutida avval kichik ilmiy xodim, so`ng katta ilmiy xodim lavozimlarida ishladi. 1959-1975 yillarda shu institutning sharq qo`lyozmalarini tavsiflash va kataloglashtirish bo`limiga mudirlik qildi.

1976-88 yillarda sharq yozma yodgorliklarini o`rganish va nashr qilish bo`limini boshqaradi. 1988-99 yillarda institutning etakchi ilmiy xodimi, so`ng vafotigacha bosh ilmiy xodimi lavozimida ishlab keldi. U. Karimovning asosiy ilmiy faoliyati sharqdagi kimyo, dorishunoslik, tabobat ilmlarining tarixi kabi soqalarini o`rganishga haratilgan. Shu bilan birga uning arab badiiy adabiyoti bo`yicha ham anchagina ishlari bor. 1953 yilda U. Karimov sharqning buyuk tabibi va kimyogari Abu Bakr ar-Roziyning fanga noma'lum bo`lgan «Kitob sirrul - asror» asari bo`yicha «Neizvestnoe sochinenie Abu Bakra ar-Rozi «Kniga tayno` tayn» v svete drugix ego trudov po ximii» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi va 1957 yilda uni monografiya xolida nashr etdi. Olim Abu Ali ibn Sino ilmiy me'rosining asosiy tadqi-qodchisi va tarjimonlaridan biri edi. Uning faol ishtirokida 1953-61 yillar «Tib qonunlari»ning barcha besh kitobi to`la holda rus va o`zbek tillariga tarjima qilinib, ilmiy izoqi bilan nashr etildi. Bu xayrli ishda ruscha tarjimaning 52 bosma taboqi, o`zbekcha tarjimaning 33 bosma taboqi U. Karimov qalamiga mansub, yana 280 bosma taboqdan iborat bo`lgan o`zbekcha tarjimaga muharrirlik ham qilgan. 1980-1982 yillarda chop etilgan «Tib qonunlari»ning ikki tillik to`liq nashri ham U. Karimov raqbarligida amalga oshirilgan.

U. Karimov 80-yillarda Z. Boboxonov bilan hamkorlikda ibn Sinoning gigienaga oid risolasini rus tilida, 1987 yilda X. qikmatullaev bilan birga ibn Sinoning ikkinchi risolasini o`z ichiga olgan, «Tibbiy risolalar» nomli kitobini o`zbek tilida chop etdi.

1972 yilda U. Karimov «Kitobi as-Saydana (Farmokogno-ziya) Beruniy» mavzuida doktorlik dissertatsiyasini qimoya qiladi. Bu tadqiqot 1973 yilda rus tilida Beruniyning tanlangan asarlarining IV tomi sifatida nashr etildi. U. Karimov Abu Rayxon Beruniy nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo`ldi. Olim 1974 yilda O`zbekiston FAning muxbir a'zosi etib saylandi; 1980 yilda unga «O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan fan arbobi» unvoni berildi. U. Karimov yirik ilmiy asarlari bilan dunyoga tanilgan olimdir. Uning bir qancha kitoblari chet ellarda xorijiy tillarda ham nashr etilgan. Olim ko`pgin xalharo simpozium va anjumanlarda qatnashgan. Uning yirik asarlari 40 ga yaqin bo`lib, ulardan 12 tasi monografik xarakterga ega. Bulardan tashhari U. Karimov fan tarixi, sharq xalqlari tarixi, sharq adabiyoti va filologiyasi bo`yicha yozilgan Yigirmadan ortiq ilmiy ishlarga mas'ul muharrirlik qilgan. Uning raqbarligida 4 ta nomzodlik va 1 doktorlik dissertatsiyasi yoqlandi.

1993 yil U. Karimov gumanitar fanlar soqasidagi xizmat-lari uchun birinchi bo`lib Bobur nomli oltin medal bilan muko-fotlangan. Olim 1995 yil iyun oyida O`zbekiston Respubli-kasi Fanlar Akademiyasiga qaqiqiy nomzod etib saylandi.

Umrining oxirgi yillarida. U. Karimov Beruniyning «Kitob as-saydana fi-t-tib» asarini o`zbekchaga tarjima qilib nashrga tayyorlagan edi.

Boqi Zoqidovich Xolidov

B.Z. Xolidov O`zbekistonda sharqshunoslik fanining rivoj-lanishiga, ayniqsa, sharqshunos mutaxassislar tayyorlash bori-shida katta hissa qo`shgan olim. U. 1905 yil Tataristonning Buva shahriga yaqin bo`lgan Kamzo qishloqida deqqon oilasida tuqildi. Dastlabki ta'limni qishloq madrasasida oldi. U erda arab tili va adabiyotini o`rgandi va ayni zamonda maxsus rus maktabiga qatnab, rus tilini o`rganadi, so`ngra o`qituvchilik qildi. Keyinchalik Ashxabodda «Sho`rolar Turkmanistoni» gaze-tasida xodim, tarjimon, bo`lim boshliqi bo`lib ishladi. U bir qancha olimlardan sharq xalqlarining tillari va adabiyotini o`rgandi. U K. Shamun, A. Umariy va Alizoda kabi olimlardan arab tilining grammatikasi, arab adabiyoti nazariyasini, arab poeziyasini, aruz ilmini, fors tili va adabiyotini, ozarbayjon va turkman tili va adabiyotini o`rgandi. 1935 yil qozon univer-sitetining fizika-matematika fakultetiga o`qishga kirdi. O`qishni tugatgandan so`ng, Toshkentga yo`llanma oladi va 1941 yil boshiga kelib kichik ilmiy xodim bo`lib ishlaydi. O`zbekis-ton Fanlar akademiyasining til va adabiyot institutida va tarix institutida astronomiya bilan shuquullanadi. Lekin ko`p o`tmay urush boshlanadi. Urushda zobitlik va tarjimonlik qiladi.

1947 yildan boshlab, B.Z. Xolidov O`rta Osiyo davlat Uni-versitetining sharq kulliyotida ishlaydi. Bu erda mudarris, dotsent, eron-afqon kafedrasini mudiri, 1957 yildan to umri-ning oxirigacha arab filologiyasi kafedrasida mudir bo`lib ishlaydi. U matematik, ixtisosi - astronomiya, pushtu tilidan fan nomzodi, arab tilidan darslik kitobini yaratgan ustoz hisoblanadi.

Olim vatandoshimiz M. Zamaxshariy asarlarini ham o`rga-nib bizga tanishtirdi. U o`z ishini 50 dan ortiq asar yozgan Zamaxshariy merosining tasnifidan boshlaydi. har bir asar ilmning qaysi soqasiga taaluqli ekanligini va o`sha soqani qanchalik hamrab olishini aniqlaydi. Shundan so`ng B.Z.Xoli-dov M.Zamaxshariyning mashhur asari «qqqqq qqqqq» qq qqqqiq qila boshlaydi. Olim bu leksikografik asar haqida ayrim ilmiy fikrlar aytishga ulgurdi. 1968 yil ustozimiz boqiy dunyoga rixlat qiladilar. Biroq ularning shogirdlari shu soqada ishni davom ettirmoqdalar.

B.Z. Xolidovning etimologiya soqasidagi ishlari ham diq-qatga sazovordir. Uning ba'zi so`zlarning etimologiyasiga doir tadqiqoti yuksak darajadagi ilmiy asar hisoblanadi. Bu ishni yozishda ilmiy olim somiy (oromiy, finikiy, ifrit, arab), tur-kiy, (o`zbek, tatar, qozoq, uyqur), eroniy (dariy, pushtu, paxlaviy) va evropa tillarida materiallardan foydalangan. Uning yirik asari bo`lmish «Arab tili asoslari» darsligi bir necha marta nashr qilindi. Bu darslik O`zbekiston arabshu-noslarining bir nechta avlodini tarbiyalab etishtirishda yordam bergan.

Ne'matilla Ibrohimovning hayoti va ijodi

Ne'matilla Ibrohimov taniqli arabshunos - manbashunos olim, filologiya fanlar doktori, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining akademigi.

1945 yil 8 avgustda Marqilon shahrida tuqilgan. O'rta mak-tabni 1962 yilda tugatib, Marqilon shahar bosmaxonasida ishladi. 1965 yilda Toshkent Davlat Universiteti sharq fa-kultetiga o'qishga kirib, 1970 yilda uning arab filologiyasi bo'limini tugatdi va shu yildan arab filologiyasi kafedrasida o'qituvchi lavozimida ishlay boshladi.

N. Ibrohimov Moskvada FA Sharqshunoslik instituti as-piranturasini bitirib, 1975 yilda «Puteshestvie Ibn Battuto` - istochnik po istrii Sredney Azii» mavzuida nomzodlik dis-sertatsiyasini yoqladi. So'ngra Toshkentga qaytib, arab filolo-giyasi kafedrasida pedogoglik faoliyatini davom ettirdi.

ToshDU sharq fakultetida o'qituvchi, katta o'qituvchi va 1979 yil-da dotsent lavozimida ishlab, arab tili, o'rta asr arab adabiyoti, islom tarixi kabi fanlar va maxsus kurslardan dars berdi.1980 yildan boshlab, N. Ibrohimov arab filologiyasi kafedrasining mudiri, 1989 yili sharq fakulitetining dekani, 1991 yildan hozirga qadar Toshkent Davlat Sharqshu-noslik institutining rektori vazifalarida xizmat kelib kelmoqda. U O'zbekiston Oliy majlisining deputatidir.

N. Ibrohimov 1984 yilda Moskva sharqshunoslik instituti Ilmiy kengashida «Arabskiy narodno'y roman» (problemo` janroobrazovaniya i stilya)» mavzuida doktorlik dissertatsiya-sini yoqladi va filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini oldi. 1985 yilda unga profecsorlik ilmiy unvoni berildi.

N. Ibrohimov Markaziy Osiyo tarixi va madaniyati, sharq adabiyotshunosligi va tilshunosligi, manbashunoslik, sharq til-larini o'qitish masalalariga oid nashr etilgan 150 dan ortiq kitoblar, monografiyalar va ilmiy maqolalar muallifidir.

Olimning arabiyzabon yodgorliklarni tadqiq qilish asosida yaratilgan «Ibn Battuta va uning O'rta Osiyoga sayo-qati», «Arab xalqlari romani», «O'rta Osiyo xalq adabiyoti», uning umumiy taxriri ostida tayyorlangan to'rt jildlik «hadis» va boshqa bir qancha kitoblari o'zbek, rus, arab, tillarida nashr etilgan.

N. Ibrohimovning O'zbekistonda ilk bor chop etilayotgan 47 bosma taboqli «Arabcha-o'zbekcha luqati» qomuslar bosh taqri-riyatida nashrga tayyorlanmoqda.1988 yilda N. Ibrohimov «Arabiyzabon madaniy yodgorlik-larni o'rganish» ilmiy guruqini tashkil qilib, o'z atrofiga yosh tadqiqotchilarni to'pladi. O'ziga xos ilmiy maktab tusini ol-gan bu guruq o'rta asr adabiyotini arab tilida ijod etgan ulamo-larning qo'lyozma asarlarini tadqiq etish, hamda amalga oshi-rilgan ilmiy izlanishlar natijasida nashr etishda jiddiy muvaffaqiyatlarga erishdi.

Olim sharqshunos, jumladan, arabshunos mutaxassislarni tayyorlash, ularni chet mamlakatlarga yuborib o'qitish, insti-tutda ta'lim tarbiya ishlarini oliy darajaga ko'tarish borasi-da tinmay meqnat qilmoqda. Uning raqbarligida 10 dan ziyod fan doktori va fan nomzodi etishib chiqdi. hozirda u bir necha tadqiqotchining doktorlik

va nomzodlik dissertatsiyasiga raq-barlik qilmoqda. U institut qoshida tashkil qilingan filo-logiya fanlari bo'yicha doktorlik ilmiy darajalarini berishga ixtisoslashgan ilmiy kengashning raisi sifatida ham faollik ko'rsatib kelmoqda.

N. Ibrohimov sharqshunoslik fani rivojiga qo'shgan sal-moqli hissasi uchun Butunittifoq sharqshunoslar assotsiatsiya-sining 1990 yil diplomi bilan mukofotlandi.

N. Ibrohimov dunyodagi eng qadimiy dorulfunlardan biri - Seul shahrining Sen Kyun Kvan universiteti faxriy doktori unvoniga sazovor bo'lgan. 1994 yilda esa unga Yaponiya Fukusima prefekturasining O'zbekistondagi faxriy elchisi unvoni berildi.

Olim oxirgi yillarda AqSh, Yaponiya, Janubiy Koreya, Misr, Jazoir, Suriya, quvayt, Katar, Birlashgan Arab Amir-ligi, Ummon kabi xorijiy mamalakatlarda xizmat safarida bo'ldi. U Misrdagi qoqira, Al-Azhar, Ayn Shams universitet-larida, quvayt universiteti va Fors ko'rfazidagi qator boshqa o'quv va ilmiy markazlarida o'zbek faniing yutuqlari va mada-niy me'rosi haqida ma'ruzalar qilib, qator xorijiy univer-sitetlar bilan ta'lim soqasida shartnomalar tuzib qaytdi.

N. Ibrohimov 1995 yil O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga deputat etib saylangan. 1998 yil N. Ibrohimov va M. Yusupov «Arab tili gramma-tikasi» darsligini yozishdi. Darslik 1999 yili jumquriya-timizda eng yaxshi darslik sifatida baqolandi.

Savollar:

1. O'rta Osiyodagi yirik ma'rifat o'choqlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Arabshunoslik fanining ulkan yutuqlari qaysi olimlar tomonidan qo'lga kiritildi?
3. Bobur nomi oltin medalga Kim birinchi bo'lib sazovor bo'ldi?
4. 1957 yilda kim arab filologiyasi kafedrasining mudiri bo'lib ishladi?
5. "Arabiyzabon madaniy yodgorliklarni o'rganish" ilmiy guruqi qachon kim tomonidan tashkil etildi?

Tayanch iboralar:

O'zbek arabshunos maktabi, Tib qonunlari, Sho'rolar Turkmanistoni, qozon universiteti, deputat, Arab xalq romani, faxriy elchi, madaniy meros

Mustaqil ish mavzusi:

Institutimiz arabshunoslarining ilmiy faoliyati

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. -T. 1999.
2. Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. -T., 1997.
3. Ibrohimov N.I. Muqaddas kitoblar. Sharq mash'ali. 1992.
4. Irisov.A. Toshkentda arabshunoslik. -T. 1964.
5. Shayx Ismoil Maxdum. Toshkentdagi Usmon Musqafining tarixi. -T. 1995.
6. Hasanov A.A. qadimgi Arabiston va ilk islom johiliya asri. -T., 2001